

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

"IJTIMOIY IQTISODIYOT" fakulteti

"IQTISODIYOT VA MEHNAT SOSIOLOGIYASI" kafedrası

XOLMAMATOV G'AYRAT ABDUSALIMOVICH

**AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA QISHLOQ AHOLISINI
MEHNAT SALOHİYATIDA FOYDALANISH YO'LLARI**

Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan
dissertasiyasi

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari nomzodi,
dosent Bozorov B.U.**

SAMARQAND - 2012

	AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA QISHLOQ
I-	AHOLISINI MEHNAT SALOHIYATIDAN SAMARALI
BOB.	FOYDALANISHNING NAZARIY
	ASOSLARI.....
1.1.	Mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....
1.2.	Qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy yondashuvlari.....
1.3.	Qishloqda oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlari.....
II-	SAMARQAND VILOYATIDA AHOLINI ISH BILAN
BOB.	BANDLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ AHOLISINI
	MEHNAT SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH
	HOLATI.....
2.1.	Respublika mehnat salohiyati va undan iqtisodiyotda oqilona foydalanish.....
2.2.	Hudud qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanish tahlili.....
2.3.	ViLOYAT aholisini ish bilan bandligini ta'minlash holati tahlili.....
III-	HUDUD QISHLOQ AHOLISI MAVJUD MEHNAT
BOB.	SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH TIZIMINI
	TAKOMILLASHTIRISH.....
3.1.	Qishloq mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va ish bilan bandlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....
3.2.	Mikromoliyalashni kengaytirish va kasanachilikni rivojlantirishning qishloqlarda ishsizlik darajasini pasaytirishdagi samarasi.....
3.3.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari.....
	XULOSA.....
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....
	ILOVALAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, "... 2012-yilda ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi barchamizning, ... diqqat markazida turishi zarur. Ushbu dasturga binoan 967 mingdan ortiq ish o'rni yaratish, ularning qariyb 600 mingini qishloq joylarda tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hisobidan 480 mingdan ziyod kishini ishga joylashtirish, birinchi navbatda, korxonalar bilan hamkorlikda mehnat shartnomalari asosida kasanachilikning turli shakllarini, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 210 mingdan ortiq kishining bandligini ta'minlash rejalashtirilgan"¹.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o'zining munosib kelajagini ta'minlashni va jahonning eng ilg'or mamlakatlari qatoridan joy olishni zarurat qilib oldi. Shu bois, O'zbekiston hukumati mamlakatda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy islohotlar amalga oshirish uchun, aholi ish bilan bandligini, xususan qishloq aholisi mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni nazariy va amaliy mexanizmlarini yaratadi.

Iqtisodiyotni yangilash sharoitida aholini ish bilan bandligini ta'minlashda qishloq aholisi mehnat salohiyatidan samarali foydalanish ijtimoiy totuvlik va barqarorlikka erishuvning, jamiyat iqtisodiy rivojining muhim omilidir. Bozor munosabatlarini rivojlanishi qishloq aholisini ish bilan bandlik sohasidagi hukumatimizning inson omiliga qaratilgan strategiyasida mehnatga qodir har bir inson o'z qobiliyatlarini o'stirish va o'z mehnat tarzini ta'minlashi uchun sharoitlar yaratishi nazarda tutadi.

Zero, Prezident I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Hisobot yilida yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini hal qilish ham e'tiborimiz markazida bo'ldi. Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizidan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizidan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizidan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi¹”.

Hozirgi sharoitda iqtisodiy o'sish barqarorlashuvini ta'minlashda bir qator muammolarni yechish taqozo etmoqda. Masalan, iqtisodiy rivojlanishi sur'atlari ishlab chiqarishda band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchi va xodimlarni boshqa ishlarga jalb etish vazifalari kuchayadi. Bu esa, mamlakat qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanishda jiddiy o'zgarishlar amalga oshirishni, dastavval esa, bunday o'zgarishlarni nazariy jihatdan asoslangan holda joriy qilish talab qilinadi.

Bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiya qilish sharoitida mamlakatimizning qishloqlaridagi ko'p millionli mehnat resurslarni oqilona ish bilan bandligini ta'minlash zaruriyati tug'ilmoqda. Shu sababli aholi ish bilan bandligini ta'minlashda qishloq aholisining mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va uni takomillashtirish muammosini nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish va tahlil qilish dolzarb muammo hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mamlakat mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ish bilan bandlik, ishsizlik muammolarini o'rganish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning istiqbolini belgilash ahamiyati, uslublari va afzalliklari, bandlikning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli klassik iqtisodchi-olimlar A.Smit, D.Rikardo, K.Makkonell, A.Marshall, A.Ouken, I.Fisher, D.Keyns, P.Samuelson asarlarida keng yoritilgan. Iqtisodiyotni yangilash sharoitida qishloq aholi bandligining o'ziga xos xususiyatlari, ularni turmush

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

darajasini yaxshilashning amaliy va nazariy muammolari hamda bashoratlash usullarini MDX mamlakatlari iqtisodchi olimlari R.Agabekyan, G.Avagyan, N.Volgina, Yu.Odegov, L.Kostin, A.Jukov, V.Kulikova, V.Plaksya va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Q.Abduraxmonov, G.Saidova, S.G'ulomov, O.Ata-Mirzayev, R.Ubaydullayeva, Sh.Xolmo'minov, L.Maksakova, N.Zokirova, D.Raximova, V.Imomovlar tomonidan ham ushbu muammolar tadqiq etilgan.

Magistrlik dissertasiyasining maqsadi – iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida aholini ish bilan bandligini ta'minlashda qishloq aholisining mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha nazariy va ilmiy asoslangan taklif va tavsiyanomalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun **magistrlik dissertasiyasi oldiga quyidagi asosiy vazifalar** qo'yiladi:

- mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritib berish;
- qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy yondashuvlarini o'rganish;
- qishloqda oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash;
- viloyatning mehnat salohiyati va undan iqtisodiyotda oqilona foydalanishni tahlil qilish;
- hudud qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanish tahlil qilish;
- viloyat aholisini ish bilan bandligini ta'minlash holati tahlilini amalga oshirish;
- qishloq mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va ish bilan bandlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlash;
- mikromoliyalashni kengaytirish va kasanachilikni rivojlantirishning qishloqlarda ishsizlik darajasini pasaytirishdagi samarasini yechimi yuzasidan aniq xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqish;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti – Samrqand viloyat qishloq aholisi mehnat salohiyati.

Tadqiqot predmeti - bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitlarida aholining ish bilan bandligini ta'minlashda qishloq aholisi mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va uni takomillashtirish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni tizimi hisoblanadi.

Ilmiy ishning nazariy va uslubiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari hamda mehnat bozori va aholi ish bilan bandligi, ishsizlik muammolari bo'yicha vatanimiz va xorij iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotning asosini ushbu muammolar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me'yoriy-xuquqiy hujjatlar, Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari tashkil etadi.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati o'rganilgan;

– qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy yondashuvlarini o'rganilgan;

– qishloqda oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlangan;

– viloyatning mehnat salohiyati va undan iqtisodiyotda oqilona foydalanish yo'llari aniqlangan;

– qishloq mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va ish bilan bandlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish yo'nalishlari aniqlangan;

– mikromoliyalashni kengaytirish va kasanachilikni rivojlantirishning qishloqlarda ishsizlik darajasini pasaytirishdagi samarasi bo'yicha muammolar yechimi yuzasidan aniq xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertasiya ishining ilmiy-amaliy tavsiyalari ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi sifatida aholini ish bilan bandligini ta'minlashda keyinchalik tadqiq etish uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Dissertasiya aholini ish bilan bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish muammolarini o'rganish jarayonini to'ldiradi, shuningdek, unda mehnatga layoqatli aholidan foydalanishni yaxshilash vazifalarini hal etishga oid aniq takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu dissertasiyaning ilmiy-amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida, shuningdek, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadlarida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarida, tuman bandlikka ko'maklashish markazlarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida «Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi», «Mehnat bozori iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'qitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Magistrlik dissertasiyasining tarkibiy tuzilishi. Ishning tarkibi, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq: kirish, mavzuning asosiy mazmuni va mohiyatini ifodalovchi sakkizta savollardan iborat uchta bob, hulosasi va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I-BOB. AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA QISHLOQ AHOLISINI MEHNAT SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI NAZARIY ASOSLARI

1.1. Mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali tatbiq etish, aholini ish bilan ta'minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish eng avvalo mavjud mehnat salohiyatidan unumli foydalanishga bog'liq. Mehnat salohiyati esa, ma'lumki, ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib, boshqa resurslarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Mehnati salohiyatini tadqiq etish uning resurs tarzidagi mazmuni va mohiyatini ham sifat, ham miqdor jihatidan ochib beradi. Mehnat salohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanishi, uning tadqiq etilishi va o'rganilishi bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida «ishchi kuchi», «mehnat resurslari», «mehnat salohiyati» kabi iqtisodiy tushuncha va kategoriyalarning ham ma'no va mazmuni birmuncha o'zgarib bormoqda. Bu tushunchalar faqat ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda emas, balki kundalik amaliyotimizda ham keng foydalanila boshlandi. Iqtisodiy adabiyotlarda hozirgacha jamiyatning mehnat salohiyati tushunchasiga turli xil qarashlar mavjud bo'lib, bu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan «mehnat resurslari» va «ishchi kuchi» tushunchalarini undan farqlash zaruriyati bo'lganligi sababli ushbu tushunchalar munozarali masala bo'lib qolmoqda.

«Mehnat salohiyati» kategoriyasi turli xil mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lib, bu mehnat salohiyatini hozirgi paytda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bu borada, bir tomondan, mehnat salohiyati to'g'risidagi to'plangan qarashlar umumlashtirib, bir tizimga tushirilsa, boshqa tomondan mehnat salohiyatining shakllanishi, foydalanish va uning kelajakda rivojlanish yo'llarini boshqarishni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan keng doiradagi nazariy-metodologik masalalarni yoritib berish zarur.

«Mehnat salohiyati» mehnat imkoniyati, quvvati, mehnat bilan bog'liq kuchlarning mavjudligi degan ma'noni bildiradi. Mazkur kategoriyani tahlil qilib, ba'zi olimlar mehnat salohiyati bilan mehnat resurslari bir-biridan farq qiladi, mehnat salohiyati mehnat resurslari va ishchi kuchiga nisbatan kengroq tushuncha deydlar. Bu borada rossiyalik olim, akad. L.I.Abalkin «salohiyat» va «resurs» tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish kerakmas, shuningdek, ularni bir xil qilib qo'yish ham to'g'ri kelmaydi, chunki bir qism butun bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi.

Hozirgi vaqtda mehnat salohiyati to'g'risidagi qarashlarni ikki yo'nalishga ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi yo'nalish tarafdorlari, mehnat salohiyati bu jamiyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan turli xildagi mehnat bilan bog'liq resurslar majmuidir deydlar. Mehnat salohiyatini ifodalashda ko'pchilik tadqiqotchilar unga «resurs sifatida» yondashadilar.

«Salohiyat» kategoriyasini talqin qilib, V.G.Kostakov, G.G.Sergeyeva, L.S.Chijova kabi bir qator rossiyalik iqtisodchi olimlar, mehnat salohiyati – bu jamiyat egalik qilgan mehnat resurslaridir, deydlar. Ularning fikricha, mehnatga layoqatli aholining soni va uning sifati tomonlarini birgalikda, uzviy bog'liqlikda ko'rish mehnat salohiyatining real mazmunini ifodalaydi.¹

Moskva Davlat Universitetining professorlari R.P.Kolosova va L.E.Kunelskiylar mehnat salohiyati – bu ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishga layoqatli bo'lgan barcha fuqarolarni o'z ichiga oladi, deb tushuntiradilar. Ularning fikricha, ishlab chiqarishda bevosita ish bilan band bo'lgan ishchilar bilan bir qatorda ba'zi ijtimoiy va shaxsiy sabablarga ko'ra, xalq xo'jaligida ish bilan band bo'lmagan kishilar ham mehnat salohiyatiga kiradi.²

N.A.Volgin: «Mehnat salohiyati – o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina elementlardan tashkil topgan mehnat resurslarining jamidir. U yoki bu elementni ushbu majmuaga kiritishga asos bo'lib xizmat qiluvchi asosiy belgi bu

¹ Чижев Н.А. Управление корпоративными кадрами. – М.: Питер Принт, 2005, 31-с.

² Колосова Р.П. Экономика труда. – М.: МГУ, 2004, 42-с.

jonli shaxs, organizm egalik qiladigan mehnatga bo'lgan jismoniy va ma'naviy qobiliyatdir. Ushbu qobiliyatlar barcha mehnatga layoqatlilar uchun, ular ma'lum shart-sharoitlar tufayli mehnatda qatnasha olmayaptilarmi va bunda ular salohiyat ishchilarni tashkil qilsalar ham, bundan qat'iy nazar o'ziga xos mehnat salohiyati bo'ladi», - deydi.¹

Ukrainalik olim N.V.Korovyakovskaya esa muxim nuqtai nazarni ilgari surib, «mehnat salohiyati – mehnatga layoqatli yoshdagi kishilardan tashkil topadi, shuningdek, pensiyaga chiqsa ham, o'zlarining mehnatga bo'lgan qobiliyatini saqlab qolganlardan iborat bo'ladi», deb hisoblaydi. V.G.Vrublevskiyning ta'kidlashicha, mehnat salohiyati jami ishchi va unga mos mehnat sharoitining birligidan iboratdir. Mehnat salohiyati deganda, u, bir tomondan, uning mazmunini, boshqa tomondan ijtimoiy-iqtisodiy xarakterini ifodalovchi jami ish kuchi va shunga munosib bo'lgan mehnat sharoitining birligidan iborat bo'lgan omilni tushunadi.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari «omillar» bo'yicha yondashadilar, ular mehnat salohiyatini resurs ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy va insoniy omillarning shakli sifatida tavsiflaydi.

M.I.Skarjinskiy mehnat salohiyatini shaxsiy omil harakatining iqtisodiy shakllaridan biri sifatida qaraydi. A.S.Pankratovanning fikricha, mehnat salohiyati – jamiyatning, ishlab chiqarishni rivojlantirish talablariga mos keluvchi shaxsiy omil bilan ta'minlash imkoniyatini miqdoriy ta'riflaydigan tushunchadir. M.M.Skarjinskiyning mehnat salohiyati jamiyatni harakatga keltirishning real va salohiyat imkoniyatlaridir, degan fikridan farqli ravishda A.S.Pankratova mehnat salohiyati – bu shaxsiy omilni miqdoriy namoyon bo'lishidir, deb ta'riflaydi.²

Mehnat salohiyatining miqdoriy va sifatiy tomonlari ta'riflari o'zbekistonlik olimi D.N.Raximova tomonidan ham kengroq yoritib berilgan bo'lib, uning

¹ Экономика труда: (социально-трудовые отношения). Под ред. Н.А.Волгина, Ю.Г.Одегов. – М.: «Экзамен», 2004, 132-с.

² Панкратова А.С. Социология труда. – М.: Инфра-М, 2004, 161-с.

fikricha, mehnat salohiyati miqdor ko'rsatkichlari bilan bir qatorda sifat tomonlariga ham ega bo'lishi kerak.¹

Rossiyalik olim D.N.Karpuxin esa mehnat salohiyati tarkibini A.S.Ponkratova va L.I.Goldin ta'riflariga taqqoslab, kengroq yoritib bergan. U tomondan berilgan ta'riflarning ba'zilar «resurs sifatida» yondashuvchilarning ta'riflari bilan mos keladi. Ayni paytda, u mehnat salohiyatining sifat tomonlariga mehnatning texnika bilan qurollanishi-ni kiritadiki, muallif bu borada «omillar» jihatidan yondashuvchilar tarafdorlariga kiradi.

V.Dobrik, M.I.Dolishniy, S.N.Zlupko, I.S.Maslova va boshqalardan iborat iqtisodchilar guruhi mehnat salohiyatini inson omilini gavdalantiruvchi shakl sifatida qaraydilar. Bu mualliflar mehnat salohiyati mehnatga layoqatli aholini takror ishlab chiqarish jarayoni, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy sharoitlar birligidan iboratdir, deydilar. M.I.Dolishniy talqinida mehnat salohiyati demografik shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, kasbiy malakalari, ekologik sharoiti, salomatlik, ijodiy, siyosiy, ma'naviy, ahloqiy va mehnat tarbiyasini o'z ichiga oladi. I.S.Maslova mehnat salohiyatiga, aholini, mehnat resurslarini va ishchi kuchining o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xislatlarini, keyingi rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydigan, ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv shart-sharoitlarini mujassamlashtiradigan, integral shakl sifatida qaraydi.²


Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar, mehnat salohiyatining ta'rif-larini bir-birlaridan farq qilishidan guvohlik bermoqda. Umuman olganda, mehnat salohiyatiga «omil sifatida» yondashuvchilar, uning mazmunini «resurs sifatida» yondashuvchilarga nisbatan kengroq talqin qiladilar.

Agar «mehnat resurslari» va «ishchi kuchi» tushunchalari o'zida faqatgina miqdoriy xususiyatlarni mujassam etsa, ushbu tushunchalardan farqli ravishda «mehnat salohiyati» tushunchasi ham miqdoriy, ham sifatiy ko'rsatkichlarni o'z

¹ Рахимова Д.Н. Трудовой потенциал Узбекистана в условиях переходной экономики: проблемы развития и эффективного использования. – Т.: ТашГУ, 1998. 21-б.

² Маслова И.С. Рабочая сила в пореформенной России. // ЭКО: Экономика и организация промышленного производства. 2002, №12. 151-с.

ichiga oladi. Uning miqdoriy ko'rsatkichlarini chizma ko'rinishda quyidagicha ifodalash mumkin (1.1-расм):



1.1-расм. Mehnat salohiyatining miqdoriy ko'rsatkichlari¹.

Mamlakat mehnat salohiyati miqdoriy ko'rsatkichining tub o'zagi, ya'ni yadrosini **inson** tashkil etib, shaxsiy insoniy omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida mehnat salohiyati vujudga keladi.

Mehnat salohiyati ko'pchilik asarlarda, risolalarda tushuncha sifatida qaraladi, bir qator olimlarning ilmiy ishlarida esa, u iqtisodiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida ochib beriladi. Mehnat salohiyatini iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilish tarafdorlari, mehnat salohiyatining ijtimoiy shakli sifatida butun jamiyatdagi mehnatda qatnashish bilan bog'liq bo'lgan mehnat jamoalari va alohida ishchilarning shakllanishi, rivojlanishi va inson shaxsining imkoniyatlaridan amalda foydalanish borasida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlarini ko'radilar.

Bir qator tadqiqotchilar mehnat salohiyatini nisbatan kengroq talqin qilib, uni o'zining mazmuni jihatidan «mehnat resurslari», «ishchi kuchi»

¹Abdurahmonov Q.X., Imomov V.A. Mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va uni boshqarish. –Toshkent. 2008. 13-bet.

kategoriyalaridan farq qiluvchi murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya deb qaraydilar.

Mehnat bozorining shakllanishi va uni tartibga solish – bozor munosabatlari sharoitidagi eng muhim va dolzarb maaslalardan biridir. Mehnat bozori iqtisodiyotning turli sektor va tarmoqlarining muhim bog'lovchi bo'g'inidir¹. Mehnat bozori – bu ishchi kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi va unda talab va taklif qonuni amal qiladi. Bu yerda raqobat sharoitida ishchi kuchining oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Mehnat bozorining bir tomonida ish kuchi egasi tursa, ikkinchi tomonida ishchi kuchiga muhtoj korxona, firma turadi. Ular o'rtasida ayirboshlash munosabati yuz beradi. Shu tarzda ishchi kuchiga talab va ishchi kuchi taklifi bir-biri bilan bog'lanadi.

Mehnat bozori – bozorning boshqa tizimlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, haqiqatan ham talabga ega bo'lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim.¹ Ishchi kuchiga jami talab – investisiya va ishlab chiqarish xajmlari bilan tartibga solinadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, mehnat bozori ish beruvchilar va yollanib ishlashni xohlovchilarni bevosita kelishuvi orqali talab va taklifni qanoatlantirish uchun sharoitlar yaratadi va ishchi-kuchini xarid qilish-sotish jarayonlarini bevosita tartibga solmaydi.

Respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammoni xal qilishni eng samarali qurollaridan biri bo'lgan mehnat bozori tushunchasi, tarkibi, xususiyatlari va vazifalarini tadqiqot qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularni o'rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning inobatga olinishini taqozo etadi:

¹Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: Mehnat, 2009. 400 –bet.

- respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 60% dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning 40% dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

- noqishloq xo'jaligi ishchi joylarining yetishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslarining ulushi respublikaning ish bilan band bo'lmagan butun aholisining salmoqli hissasini tashkil qiladi va ularning soni o'smoqda;

- mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo'lmagan kishilarning malakasi va safarbarligining pastligi ularning yashash joylaridan shaxarga va mamlakatning kam mehnat bilan ta'minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar obyektlariga qarab harakat qilishlariga asosiy to'sik bo'lmokda;

- hududlarda sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari xamda xususiy xo'jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi rasional nisbatni ta'minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi masalalari tadqiq qilinar ekan albatta uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish zarurdir. Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, baxosi va yollashdagi raqobat. Talab ishlab chiqarish ijtimoiy infrastrukturasi va boshqa xalq xo'jaligi sohalarining mehnat bozoriga buyurtma bergan, ish haqi fondi, shaxsiy xo'jaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan ta'minlangan ehtiyojning hajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif yollanish sharti bilan ishga ega bo'lishdan manfaatdor bo'lgan ishchi kuchining miqdor va sifat (soni, jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi, malakasi va boshqalar bo'yicha) tarkibini ifodalaydi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, «mehnat bozori» tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining sistematik tadqiqoti mazkur bozornining bajaradigan asosiy vazifalarini ham aniqlashga imkon beradi:

- ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;

- bozor uslubida xo'jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;
- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;
- ishsizlarni ish topishga va ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko'maklashish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o'zgartirish.

Mehnatning erkinligi va ixtiyoriyligi – mehnat bozori shakllanishining asosiy sharoiti yoxud shartidir. Shu bilan bir qatorda mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va huquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjud. Mehnat bozori shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo'lib, yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur subyektlarni o'zaro almashuv munosabatiga kirishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orqasida shaxsiy iste'molchilik yotadi. Ular ham o'z navbatida takror ishlab chiqarishda aholini ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojini ifodalanishi bo'ladi. Mehnat bozorining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng huquqli sheriklarni iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi. Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan o'zaro bog'langan hamda bir-birlariga qaram bo'lsalar ham bir-birlariga qarshi turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish mehnat bozorining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi – taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o'sishi. Iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar xozirgi sharoitda mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifining yangi harakatini belgilovchi

eng muhim iqtisodiy shartlaridan hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratishni va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan mehnat bozorining yangi infrastrukturasining ko'p sonli mehnat talab qiladigan tarmoqlari va ishlab chiqarish bo'g'inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlarini vujudga keltiradi va rivojlanadi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) mehnat bozorida ishchi kuchining sotish, sotib olishning hal qiluvchi huquqiy shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat huquqi bo'yicha g'arb mutaxassislarining ilmiy ishlarida mehnat shartnomasi «xodimni ish haqi evaziga mehnat qilish majburiyatini olish va huquqiy buysunish mavjudligi haqidagi kelishuv» sifatida ifodalanadi. Shartnoma xususiy-huquqiy xaridlarning turlicha ko'rinishi bo'lib, unga nisbatan fuqarolik huquqiga xos me'yorlar, qoidalarini qo'llash imkoniyatlari va zaruriyatni asoslaydi.

Mehnati shartnomasining asosiy xususiyati shundan iboratki, uni tuzish albatta bo'ysunish va bog'liqlikka olib keladi, bundan tashqari vujudga kelgan huquqiy munosabatlarga ishonchlilik va uzoq muddatlilik xarakterini ifodalaydi. Ishlovchining yollovchiga bo'ysunishi iqtisodiy ma'noda mehnat shartnomasining asosiy alomati sifatida qaraladi. Bu bo'ysunish, qoidaga ko'ra, nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, tashkiliy, balki, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va Mehnat Kodeksining barcha talablariga javob beruvchi shakllantirilgan yuridik xarakterga ega. Yuqorida qayd etilgan shart-sharoitlar mehnat bozori faoliyat ko'rsatishining quyidagi asosiy tamoyillarini to'liq amalga tatbiq etgan holda mazkur bozorni shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi va quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- Ishchi kuchining erkin taklifi. Bu mehnatga layoqatli aholining ishbilan band bo'lishi va bo'lmaslikni ixtiyoriy tanlashini, mehnat qonunlari tomonidan taqiqlanmaydigan va har bir xodimning shaxsiy va jamoa manfaatlarini hisobga

oluvchi kasb va faoliyat turini erkin tanlash uchun sharoitlar mavjudligini anglatadi;

- Ish beruvchilarni ishchi kuchiga mustaqil talabi. Bozor munosabatlari xodimlarni barcha ish beruvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va Mehnat Kodeksi qoidalariga albatta amal qilgan holda ishga erkin yollashlari va ishdan bo'shatishlari hamda bandlik, mehnat sharoitlari va unga haq to'lashni kafolatlash bilan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishlari uchun imkoniyatlar yaratadi;

- Yollanma xodimlarni ish beruvchilar tomonidandan huquqiy va ijtimoiy himoya qilinganligi;

- Ish haqi va boshqa qonuniy daromadlar chegarasini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilangan «kun kechirish uchun zarur miqdordan kam bo'lmaslik»ka rioya qilgan holda erkin belgilash.

Shu bilan birga ortiqcha mehnat resurslariga ega respublikamiz hududlarida ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifini pasayishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo'jaligi tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko'lamini kengaytirish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini va ish joylariga ehtiyojni pasaytiruvchi omillar vujudga keladi va ular ta'sir qila boshlaydi: shaxsiy yordamchi xo'jalik, yakka mehnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishning boshqa sohalarini rivojlantirish, bandlikning egiluvchan va nostandart shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq etish, mahalliy kadrlarning mobilligini (safariylikni) hamda malakasini oshirish va boshqalar.

Shu bilan birga shunday omillar ham borki, ular kompleks holida ishchi kuchi taklifining shakllanishi holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishlashni xohlovchilar, yollangan xodimlar va ish

beruvchilarning tabiiy va mexanik harakatlari; turmush uchun zarur bo'lgan mablag'lar jamg'armasi; yollangan xodimlarning pul daromadlari; nafaqaxo'rlar va bolalik ayollarning mehnat va ijtimoiy pensiyalari, imtiyozlari va kafolatlari; kasbiy tayyorlash yoki qayta tayyorlash va malakasini oshirishga zaruriyati bo'lgan shaxslarni mablag'lar bilan ta'minlovchi davlat, korxona va oilaning moliyaviy imkoniyatlari; yollanmasdan «uy mehnati»da band bo'lganlarning soni; Qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar soni va ularda xizmat qilish muddati; muqobil va malakali kasbiy xizmatlarni takomillashtirish va hokazo.

Ishchi kuchiga talabning o'sishi yoki kamayishi (dinamikasi) quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan aniqlanadi: mavjud bo'lgan va yangidan yaratiladigan ishchi joylari; investisiya salohiyati va uning takror ishlab chiqarish tuzilishi; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar; mulkchilik shakllarining turli-tumanligi; korxonalar va tashkilotlarning to'lovga qodir emasligi (bankrotligi) va hokazo. O'zbekiston sharoitida mehnat bozorining samarali shakllantirishga to'siq bo'ladigan bir qator cheklovchilar ham mavjud; iste'mol tovarlarining qimmatlashuvi; yollanma ish kuchining malakasi va safarbarligining pastligi; ish beruvchilarning yetarlicha tajribaga ega emasligi va hokazo.

1.2. Qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy yondashuvlari

Hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, shu jumladan, ish bilan bandlik siyosatining ham chora-tadbirlarini ishlab chiqishni, ushbu chora-tadbirlarni nazariy anglamay hamda asoslamay turib tasavvur qilib bo'lmaydi. Deyarli barcha ma'lum iqtisodiy nazariyalar u yoki bu darajada mehnat va ish bilan bandlik masalasiga daxldor bo'ladi. Tabiiyki, mehnat bozorining u yoki bu muammolarini yoritish hamda ishlab chiqish darajasi u yoki bu nazariya ishlab chiqilgan tarixiy davrga, muallif maqsadiga, tadqiqotining bosh mavzusiga, uning atrofidagi iqtisodiy voqeyelikka ham bog'liq bo'ladi.

XIX asrning oxirlarida klassiklarning izdoshlari ularning qarashlarini rivojlantirib, iqtisodiy nazariyaning neoklassik yo'nalishlarini ifodalab berdilar. Bu yo'nalishlarning asoschisi Kembrij universitetining professori **Alfred Marshall** (1842—1924) bo'ldi. Uning bozor narxi to'g'risidagi, tadbirkorlik, iste'molchilik xulq-atvori va boshqalar to'g'risidagi yangi nazariy qoidalaridan hozirgi vaqtda foydalanib kelinmoqda.

A.Marshall talab va taklif tartibga solish ish bilan bandlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga yega yekanligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, u butun talabni pirovard tartibga soluvchi narsa iste'molchilar talabi bo'lib, uni tartibga solish bozor tomonidan o'z-o'zidan amalga oshiriladi, deb hisoblagan.

Artur Pigu (1877-1955) Marshallning izdoshi va shogirdi bo'lgan. Uning ish bilan bandlik sohasidagi asosiy asari - «Ishsizlik nazariyasi» 1933 yilda chiqqan. Bu asarda ish bilan bandlik to'g'risidagi klassik nazariyaning asosiy qoidalari ancha to'liq bayon qilingan yedi. Piguning fikricha, ishsizlikning sababi ish haqining yuqori darajasidir, ish haqining qisqarishi yesa ish bilan bandlikni oshiradi, chunki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va qo'shimcha ishchilarni yollash uchun imkoniyat yaratiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, uning fikricha, tovarlar narxining umumiy ravishda pasayishiga va ish haqi hisobiga tirikchilik o'tkazmaydigan aholi guruhlarining xarid qilish qobiliyatini oshirishga olib keladi, bu yesa qo'shimcha talabni vujudga keltiradi, mazkur talab ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning kengayishini rag'batlantiradi. Ish bilan bandlik hajmini belgilovchi boshqa omil, Piguning fikricha, mehnatga bo'lgan haqiqiy talab funksiyasidir. Pirovardida u quyidagicha xulosaga keladi: «yollanma xodimlar orasida mutlaqo yerkin raqobat mavjud bo'lganda va mutlaqo harakatchan mehnat mavjud bo'lganda, aloqa xususiyati (xodimlar talab qiladigan real ish haqi stavkalari bilan mehnatga bo'lgan talab o'rtasidagi aloqa) juda oddiy bo'ladi. Hamma ish bilan band bo'lishi uchun ish haqi stavkalari bilan talab o'rtasida ana shunday nisbat o'rnatilishiga kuchli intilish doimiy ravishda amal qiladi».

Pigu «ixtiyoriy ishsizlik nazariyasi» tarafdori bo'lgan, unga muvofiq, ishchilarning o'zlari ixtiyoriy ravishda o'zlarini ishsizlikka mahkum yetadilar, talab va taklif natijasida bozorda vujudga keladigan «normal» ish haqi uchun ishlashga rozi bo'lmaydilar.

Keyns nazariyasi ham 70-yillarning oxirlariga kelib, inqirozga uchray boshladi. Bu nazariyaga muvofiq jami xarajatlarning o'sishi ishlab chiqarish hajmining ko'payishini, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va bu bilan ishsizlikning ortib borishi birmuncha pasaytiriladi va narxlarning ortishi sodir bo'lmaydi. Urushdan keyingi yillarda (to 70-yillarga qadar) kapitalistik mamlakatlarning rivojlanishi bu qoidalarini tasdiqladi— ishsizlik va inflyasiya kamdan-kam hollarda birga sodir bo'ldi. Biroq jahon iqtisodiy rivojlanishining borishi 70-yillarda yuqori inflyasiyasiga olib keldi, u rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy hayotining doimiy omiliga aylanib qoldi.

Ingliz professori **A. Fillips** inflyasiya va ishsizlikning bir-biriga bog'liqligini yempirik tarzda (tajribaga asoslanib) tahlil qilar yekan, u inflyasiya sur'atlari bilan ishsizlik darajasi o'rtasida teskari proporsional o'zaro bog'liqlik borligini aniqlagan. U ana shu bog'liqlikni «oddiy yoki ilk» yegri chiziq shaklida taqdim yetgan. Keyinchalik unga tuzatish kiritilib, uning sharafiga **Fillips yegri chizig'i** deb atalgan.

Monetaristlar. 60-yillarda Fillips yegri chizig'idan siyosatchilar iqtisodiy strategiyani tanlash, ya'ni o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki mushkul narsadan yeng kamrog'ini tanlash asosida foydalanib kelganlar.

Biroq, 70-yillardan ye'tiboran ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning ortishi narxlarning oshishi bilan bog'liq ravishda sodir bo'ldi: stagflyasiya muammosi vujudga keldi. Fillips yegri chizig'i ishsizlik va inflyasiyaning o'zaro munosabatidagi real vaziyatni ifodalamay qo'ydi. Ishsizlik va inflyasiyaga qarshi kurash Keynes va uning izdoshlari tasavvur qilganidan ham murakkabroq muammo yekanligi ko'pchilikka ma'lumdir. O'zlarining klassik nuqtai nazarlarida turuvchi turli ilmiy oqimlar keyns-chilikka qarshi chiqdilar. Ular

neokonservatizm nomini olgan yo'nalishni tashkil yetdilar. Neokonservatorlar orasida yetakchi o'rinni **monetaristlar** yegallaydilar.

«**Ishsizlikning tabiiy me'yori**» to'g'risidagi **gipoteza** to'liq va ish bilan bandlik darajasini aniqlashning monetaristik versiyasidir. Bunda, mehnatga layoqatli aholining to'liq ish bilan bandligining umuman iloji chegaralangan bo'ladi. Hatto kon'yunktura nihoyatda qulay bo'lgan taqdirda ham xodimlarning bir qismi o'z malakalarini qaytadan oshirishiga zaruriyat paydo bo'ladi, chunki ayrim kasblar shunchaki yo'q bo'lib ketishi ham mumkin, bundan tashqari, odamlar u yoki bu sabablarga ko'ra yashash joylarini o'zgartirishga majbur bo'ladilar va hokazo.

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, 4—5 % doirasidagi ishsizlikni iqtisodiy jihatdan qoniqarli, tabiiy desa ham bo'ladi va uni ijtimoiy ta'minlash muammoli bo'lmaydi. Ular mazkur sharoitda ish bilan bandlik darajasiga muvofiq keladigan ishsizlik me'yorini tabiiy deb hisoblaydilar. Buning ma'nosi shuki, tabiiy ishsizlik ish kuchiga bo'lgan talab bilan qat'iy belgilanadi.

M. Fridman, har qanday chog'da ham real ish haqi stavkalari tarkibidagi muvozanatga to'g'ri keladigan ishsizlikning qandaydir darajasi mavjud bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Ishsizlikning ushbu darajasida real ish haqi stavkalari muayyan «me'yoriy» sur'atda, ya'ni kapital hosil qilinishi, texnikaviy yangiliklar kiritilishi va boshqa jarayonlar o'zining uzoq vaqtli trayektoriyalarida qolavergan sayin uzluksiz saqlanishi mumkin bo'lgan sur'atda oshish tendensiyasiga yega bo'ladi. Basharti, siyosatchilar ish bilan bandlikni uning mazkur sharoitidagi tabiiy me'yoridan yuqori darajagacha oshirishga urinsalar, narxlarning oshishi bunga birinchi javob bo'ladi.

Ishsizlikning «tabiiy me'yori» to'g'risidagi nazariyasining asosiy zaifligi u mehnat bozorida ham, tovar bozorida ham mukammal raqobat bo'ladi, pulli ish haqi dinamikasi inersial bo'lib, uni sekinlashtirib bo'lmagan taqdirda narxlarning kutilayotgan o'sishi haqiqiy o'sish bilan to'g'ri kelishi (Fridmanning fikricha, bu ish bilan band yemaslik «tabiiy» darajasining belgisi bo'ladi) ishsizlikning bir me'yorida yemas, balki g'oyat xilma-xil me'yorlarida ham ro'y berishi mumkin,

ya'ni buning uchun mehnat bozorida muvozanatli vaziyat bo'lishi shart yemas, deb hisoblashadi.

Yangi klassiklar ishsizlikning noilojdanligini inkor yetadilar va kambag'allikka qarshi kurash dasturlarini tan olmaydilar. Ularning fikricha, ishsizlik ko'pincha ko'ngilli tusda bo'ladi va ishni «yerkin tanlash» natijasida yuzaga keladi: ishdan bo'shatilgan odamlar kasblarini, yashash joylarini almashtirishni xohlamaydilar va kamaytirilgan mehnat haqiga rozilik bermaydilar. Ba'zida ushbu yo'nalish namoyandalari yeng kam ish haqi darajasini pasaytirish va ishsizlik yuzasidan beriladigan nafaqalarni qisqartirish tarafdori bo'lib chiqadilar, chunki shu yo'l orqali ish bilan bandlik darajasi oshadi, deb hisoblaydilar.

Fridman hukumatning kam haq olib ishlaydigan va ijtimoiy jihatdan zaif himoya qilingan aholi qatlamlariga yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlariga qarshi chiqib, uni samarasiz deb hisoblaydi. Iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy vosita pul deb hisoblaydi. Shuning uchun inglizcha «mone» so'zi pul ma'nosini berganligi uchun, bu yo'nalish ishtirokchilarini monetaristlar nomi bilan ataganlar. Fridman asarlarining ko'pchilik qismi pul muammosiga, pul muomalasiga, kredit-pul siyosati strategiyasiga bag'ishlangan. Keynsga qarama-qarshi o'laroq, monetaristlar byudjet va soliq tartibiga qarshi chiqadilar va umuman davlat tomonidan tartibga soluvchi narsalar yeng kam miqdorga keltirilishi kerak, deb hisoblaydilar. Ularning asosiy g'oyasi — iqtisodiyotning ahvoli va kon'yunkturaning holatidan qat'i nazar, pulning barqaror yemissiyasidir. Fridman AQS'H monetar tarixini tadqiq qilish asosida pul massasining o'zgarishi bilan milliy daromadning o'zgarishi o'rtasida mustahkam bog'liqlik bor, deb hisoblaydi. Pul taklifining o'zgarishiga ular jami talabning barcha tarkibiy qismlariga (faqat investisiyalarga yemas) ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraydilar. Fridman pul qoidasining mohiyati, muomaladagi pulning har yilgi ko'payish foizi ichki milliy mahsulotning har yilgi o'sish foizi bilan mos kelishi lozim, bunda narxlarning o'sishi hisobga olinishi kerak.

Monetaristlar yerkin quvvatlar va ish kuchi mavjud bo'lgan pul massasining o'sishi narxlarning o'sishiga olib kelmaydi, deb hisoblaydilar. Buni bizdagi

monetaristlar nazariyasi tarafdorlari ham bilib qo'yishlari va hisobga olishlari muhimdir. Konsepsiyaning yana bir muhim qoidasi, qisqa muddatli pul siyosatidan voz kechish va uni uzoq muddatli pul siyosati bilan almashtirishdir, chunki pul massasining o'zgarishi iqtisodiyotga darhol ta'sir ko'rsatmaydi, balki birmuncha vaqtdan keyin ta'sir qiladi.

Monetarizmning ijobiy ta'siri pulning tovarlar olamiga ta'sir ko'rsatish mexanizmini, pul siyosatining iqtisodiyot rivojiga ta'sir ko'rsatishini batafsil tadqiq qilishdan, davlat byudjetini balanslash zarurligini asoslab berishdan iboratdir.

Yuqorida aytilganlardan hozirgi vaqtda iqtisodiy tafakkurning ikki asosiy yo'nalishi: bir tomondan, klassik va neokonservativ (monetaristik) yo'nalish, ikkinchi tomondan, keynschilik va neokeynschilik yo'nalishi mavjuddir. Birinchi yo'nalish yerkin bozorni saqlab qolishni va jami taklifni kengaytirish zarurligini yoqlab chiqsa, ikkinchi yo'nalish jami talabni rivojlantirish va davlatning iqtisodiy rolini, uning tartibga soluvchi vazifasini kuchaytirishni yoqlab chiqadi.

Neoklassik sintez. Keyingi o'ttiz yil mobaynida ko'pgina olimlar bir vaqtning o'zida bozorni tartibga solishdan va uning davlat tomonidan tartibga solinishidan o'zaro bog'liq ravishda foydalanish zarur, degan xulosaga kela boshladilar. S'Hu tariqa **neoklassik sintez** maktabi vujudga keldi. Uning asoschisi va atoqli vakili amerikalik olim, Nobel mukofotining 1970 yilgi laureati **Pol Samuyelson**dir. Uning ikki jildidan iborat «Iqtisodiyot» darsligi (uning keyingi nashri o'zbek tilida 1996 yilda chiqqan) jahondagi ko'pgina mamlakatlarning talabalari uchun uzoq yillardan buyon asosiy iqtisodiyot kitobi bo'lib xizmat qilmoqda. P.Samuyelson unda quyidagicha yozgan yedi: «hozirgi vaqtda g'arbdagi iqtisodchilarning ko'plari biz bu kitobda neoklassik sintez deb atayotgan narsalarga yerishishga intilmoqdalar, ya'ni ular samarali kredit-pul va xazina siyosati yo'li bilan Smit va Marshallning klassik makroiqtisodiyotini daromad darajasini aniqlashning zamonaviy makroiqtisodiyoti bilan birlashtirishga, har ikki yondashuvdagi barcha sog'lom narsalarni birga qo'shib olib borishga

urinmoqdalar»¹. Shu yerning o'zida u umumiy ye'tirofga ko'ra iqtisodchilar klassiklarning dalillarini haddan tashqari soddalashtirilgan hamda XIX—XX asrlar hayot faktlariga javob bermaydi, deb hisoblashlarini ta'kidlab o'tgan. Yerkini olamda hukumatlar va markaziy banklar o'zlari xazina siyosati (xarajatlar va soliqlar) va pul-kredit siyosati quroliga yega yekanliklarini, ular yordamida milliy daromad va ish bilan bandlikni belgilab beruvchi omillarga ta'sir yetishlari mumkin yekanligini ko'rsatdilar. Neoklassik sintezning yo'nalishi tadqiqotlar mavzularining kengligi va amaliy xususiyatga yega yekanligi, iqtisodiy o'sishga, ishsizlikni va uni tartibga solish usullarini tahlil qilishga doir muammolarni chuqur o'rganish, umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasining yaratilishi bilan ajralib turadi. Uning tarafdorlari iqtisodiy-matematik aloqalar usullarini ishlab chiqishga katta ye'tibor beradilar, iqtisodi-yotning davlat tomonidan tartibga solinishi bozorni tartibga solishga nisbatan katta ahamiyatga yegadir, deb hisoblaydilar. Neoklassik sintezning boshqa namoyondalaridan, bizda yendilikda mashhur bo'lib ketgan «Yekonomiks» darsligining mualliflari **Kempbell R. Makkonell** va **Stenli L. Bryularni** alohida ko'rsatib o'tamiz. Ular bu darslikda ham klassik va neokonservativ (asosan, monetaristik) nazariyani hamda Keynes nazariyasini batafsil va aniq bayon qilib berganlar. S'Hu bilan birga bu bayon qilish ko'pincha u yoki bu masalaga oid turli nazariyalarni qiyoslagan holda beriladi. «Yekonomiks» kitobining mualliflari yozishicha, «iqtisodchilarning ko'pchiligi ham keynschilikka, ham monetarizmga xos bo'lgan ishonarlilikni ye'tirof qilishga tayyordir. Har ikki nazariya foydali sxemalardan iborat bo'lib, makroiqtisodiyotni tahlil qilish imkonini beradi». Ularning fikricha, keynschilar va monetaristlarning bahslari barcha yo'nalishlardagi iqtisodchilarni makroiqtisodiy nazariyaning ayrim yeng fundamental jihatlarini qayta tahlil qilishga majbur yetdi va muhim murosamadoraga kelindi. Olimlar va amaliyotchilar xazina hamda kreditpul siyosatini muvofiqlashtirish zarurligini anglab yetdilar. Bundan tashqari, barcha yo'nalishlardagi iqtisodchilar yendilikda jami talabni ham, jami taklifni ham tahlil qilishga ye'tibor bermoqdalar.

¹ Самуэльсон П. Экономика 0.2. Ё.: 1992, 343-а.

Ish bilan bandlikning yangi mikroiqtisodiy nazariyasi mehnat bozorini ichki tomondan bir xil bo'lmagan va nihoyat darajada dinamik tarzda o'zgaruvchan, harakatchan tizim deb hisoblaydigan yangi nazariyani aks yettiradi. Dinamik yondashishni ishlab chiqish, avvalo, Ch. Xolt, Ch. Perri, M. Feldsteynlarning tadqiqotlari bilan bog'liq. Bu mualliflar ishsizlikdan, odatda, oila boquvchisi hisoblanmagan xotin-qizlar va yoshlar ko'proq jabrlanishini ko'rsatib berdilar. Ilmiy iste'molga yangi ko'rsatkich— tugallangan ishsizlikning o'rtacha muddati, ya'ni ishsizlikning boshlanishidan oxirgacha bo'lgan muddati — kiritilgan yedi. Odatda, bu muddat ko'pi bilan bir-bir yarim oyni tashkil yetishi aniqlandi.

Dinamik yondashish tarafdorlari tahlil qilish uchun ishsizlik turlarini mehnat bozoridagi ishchi kuchi oqimlari nuqtai nazaridan tasniflashni qo'lladilar. Bu mualliflar ishsizlikni umuman yemas, balki ishchi kuchining har bir alohida toifasiga nisbatan tushuntirish, mehnat bozoridagi har bir oqimga tegishli bo'lgan o'ziga xos sabablarni va ish bilan band yemaslik manbalarini qidirib topish lozim deb, hisoblar yedilar. Ishsizlik muammosini ular ishchi o'rinlari surunkali ravishda yetishmasligiga yemas, balki ko'plab odamlarning olingan ish o'rnida uzoq saqlanib qola olmasliklarida deb bilgan yedilar. Bu iqtisodchilar soliqlarni kamaytirish, ishsizlik yuzasidan beriladigan nafaqalar miqdorini qisqartirish, qonunda belgilangan yeng kam ish haqi darajasini bekor qilish yoki pasaytirish, mehnat bozoridagi axborot tizimini takomillashtirishni jamiyatning iqtisodiyotga ta'sir yetishi chora-tadbirlari sifatida taklif yetdilar.

Muvozanat modellari, tozalanmaydigan bozorlar paradigmasi **ish bilan bandlik yangi makroiqtisodiy nazariyasiga** kiradi. Ushbu konsepsiyalar ishsizlikka uzoq davom yetadigan o'zgarmas muvozanasizlik fenomeni deb qarashni aks yettiradi. Bu konsepsiyalarda ishsizlik ayrim xo'jalik bozorlarining umumiy muvofiqlashtirilmaganligi bilan izohlanadi. Keyns nazariyasidagidek, faqat mehnat bozoridagina yemas, balki, shuningdek, tovar bozoriga yoyilgan narxlar qat'iyligi va o'zgarmasligi muvozanasizlik modellarining umumiy shart-sharoiti bo'ladi.

1.3. Qishloqda oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlari

Oqilona bandlik shakllanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlarini quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida boyor muvozanatiga erishish; ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; aholining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; bajarilgan ish vaqtining miqdori; aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning hajmi; mahalliy va jalb etilgan mehnat resurslarining soni; aholining migratsion oqimi; mehnatning fond va energiya bilan qurollanishi; ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining miqdori; qishloq xo'jaligi har bir xodimini yer yuklanmasi; o'rtacha yillik ish haqi; aholining uy-joy bilan ta'minlanishi; mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; asosiy fondlardan foydalanishning smenalik koeffitsiyenti; ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlar soni hamda ularning nafaqa miqdori; mehnatning umumiy natijalaridan va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan qanoatlanish darajasi; mulkchilikning turli xil shakllari va mehnatni tashkil qilishning samaradorligi va h.k.lar.

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan mehnatga layoqatli aholining oqilona bandligini shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini, tegishli maqsadli kompleks dasturini va ekonometrik modellarni hamda kompleks tahlili va istiqbolini belgilashning metodologik asoslarini yaratishda va ularni tatbiq etishda foydalanish mumkin.

Aholining ish bilan bandligi ko'p ukladli iqtisodiyotning muhim ijtimoiy jihatini, chunki bu bilan kishilarning daromadi hosil bo'ladi, ular ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topadi, qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqara oladi. Ko'p ukladli tuzilma esa, ish bilan bandlikning usuli va tarkibini yangilaydi, uning yangi shakllarini yuzaga keltiradi.

Ish bilan bandlik xarakteri kishilarning mulkiy maqomiga bog'liq bo'ladi. Kapital sohiblari tadbirkorlik bilan band bo'lsalar, mehnat ahli yollanib ishlaydi. Ish bilan bandlik darajasini mehnat bozoridagi talab belgilaydi, ammo bozor talabi doirasida ish bilan bandlik shaklini tanlash imkoni mavjud bo'ladi. O'tish davrida ish bilan bandlikni ta'minlashning bozor qoidalari bilan birgalikda, unga davlatning aralashuvi ham yuz beradi. Davlat ijtimoiy nizolar yuzaga chiqmasligi uchun ish bilan bandlikni oshirish choralarini amalga oshirib boradi, nodavlat sektorda yangi ishchi o'rinlarini yaratishni rag'batlantiradi, qonun yo'li bilan ish bilan bandlikni tartibga soladi.

Ish bilan bandlik mehnat resurslarining ukldlararo erkin harakatini bildiradi, chunki totalitar tuzumdan farqliroq bozor munosabatiga o'tayotgan tizimda mehnat ahlini ayrim sektorlarga bog'lanib qolishi yuz bermaydi, chunki mehnatning erkin migrasiyasiga yo'l ochiladi.

Ko'p ukldli tizimda ish bilan bandlikning erkin yollanib ishlashi, tadbirkorlik qilishi, vositachi bo'lishi, yakka mehnat faoliyati bilan xonaki – oilaviy ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi, o'z-o'zini ish bilan band qilish kabi shakllari yuzaga kelib, ular barcha sohalar doirasida kechadi. Ayni bir vaqtning o'zida ish bilan bandlikning bir necha turlarini, masalan yollanib ishlash bilan tadbirkorlikni va o'z-o'zini ish bilan band qilishning chirmashib ketishi ham paydo bo'ladi. Iqtisoddagi rang – baranglik ish bilan bandlikka ham shunday tus beradi. O'z navbatida xilma – xil ish bilan bandlik xilma – xil daromad shakllarini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotni yangilash sharoitida mehnat resurslarining ukldlararo erkin taqsimlanishi bo'lib tursa – da, turli ukldlardagi ish bilan bandlik darajasi, ish bilan bandlikning daromad keltirishi va qanchaga tushishi bir xil emas, albatta. Bu tabiiy ravishda ukldlardagi korxonalar salohiyotiga, ularning bozor bilan ta'minlanishiga, umumiy iqtisodiy vaziyatga bog'liq. Bir ukld uchun ish bilan bandlik sharoiti qulay bo'lgani holda, boshqasi uchun noqulay bo'ladi.

Ma'lumki, mehnat bozoridagi talab ko'p jihatdan tovarlar va investisiyalar bozoridagi talabga bohliq bo'ladi. Turli uklad korxonalaridagi ish bilan bandlikni shu omil yuzaga keltiradi.

Bularning orasida ishlovchilar soni jadal oshib borayotgan joy – bu fermer va dehqon xo'jaliklari bo'lib, ular xususiy ukladning tayanch xo'jaliklaridir. Jamoa va davlat ukladida ish bilan bandlikning ortishi kuzatilmaydi, aksincha, ular hisobidan boshqa ukladalr rivojlanib, ularda ish bilan bandlikning o'sishi yuz beradi.

Ortiqcha ish bilan bandlik jamoa ukladiga xos jarayon, bu esa har bir ishchi o'rni beradigan daromadning kamayishiga olib keladi, iqtisoddagi ijtimoiy yo'nalishni kuchsizlantiradi.

Iqtisodiyotni yangilash sharoitida ish bilan bandlikning faqat miqdoriy emas, balki sifatli jhati ham mavjud, chunki ish bilan bandlik har bir shaxsga turlicha natija keltiradi. Shu jihatdan rasional, ya'ni oqilona ish bilan bandlik borki, bu ish joyidagi mehnat unumdorligining darajasi va shunga monand topilgan daromad bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligi davlat va aralash ukladda yuqori bo'lsa, jamoa ukladida u g'oyat pastligicha qolmoqda. Xususiy ukladda esa u g'oyat notekis bo'lib, buning asosiy sababi texnologiyalarning har xil bo'lishidir.

Ukladdagi unumdorlik texnologiyalardan tashqari korxonalarni uzilishlarsiz, muhim ishlashiga ham bog'liq. Bunga bozorbop tovarlar chiqarib, doimiy ravishda buyurtmalar olish ta'sir etadi. Texnologiyalar yaxshi bo'la turib, yuqori unumdorlikka erisha olmaslik aksiyador jamiyatlarga xos. Ular eski bozoridan ajralib, yangi bozor topib ulgurmagan, mahsulotga talab bo'lsa-da, resurs topa olmasligi natijasida ishlab chiqapishda uzilishlar bo'lib turadi, bu esa unumdorlikning texnik darajaga nisbatan past bo'lishiga olib keladi. Xususiy uklad korxonalari mahsulotlariga bozor talabi bo'lsa-da, qo'l mehnati ustuvor bo'lganidan unumdorlik past bo'ladi.

Bu ayniqsa, fermer va dehqon xo'jaliklariga xos. qishloqdagi ukladlarda asosiy fondlarni, birinchi navbatda mashina uskunalari to'zib ishdan chiqishi yuz bergan. Ba'zi bir tadqiqotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi texnikaning ko'p qismi

yaroqsiz bo'lib, to'la ishdan chiqib, temir – tersakka aylangan. Shu bois, xarajatlar tarkibida amortizasiya hissasining uzluksiz kamayib borishi kuzatiladi, yangidan ishga tushgan fondlarga nisbatan ishdan chiqqan fondlarning ortib borishi unumdorlikni ta'minlovchi moddiy bazani zaiflashtiradi. Bu ko'pchilik ukladlarda iqtisodiy o'sish resurslarining qisqarishiga olib keladi.

Xususiy uklad korxonalari asosan erkin bozor uchun ishlaydi, da narxlarning o'sishi ular tushumini oshiradi. Natijada texnika bazasi kuchsizlangan sharoitda ham jon boshiga tushum ortishi mumkin bo'ladi.

Ukladlardagi mehnat unumdoligini aniq hisoblab chiqarish mushkul ishga aylangan, chunki uning natijasi korxonalarda bazaviy narxlarda emas, balki joriy narxlarda hisoblanadi, bu esa narxga inflyasiya ta'siri kuchli bo'lishini bildiradi. Inflyasiyadan tozalangan mehnat unumdorligi natijasi korxonalar miqyosida aniqlangan emas, ammo milliy iqtisodiyot miqyosidagi unumdorlikni bazaviy narxlar asosida hisoblashga intilish mavjud.

Xullas, yana bir jihat ukladalarning samarali ish bilan bandlikni ta'minlashdagi ishtiroki ham farqlanadi, ya'ni nodavlat ukladlar ish bilan bandlikni miqdoriy jihatdan ko'proq ta'minlanayotgan bo'lsa-da, ular to'liq samarali bo'lishiga hozircha erisha olayotganlari yo'q.

II BOB. SAMARQAND VILOYATIDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ AHOLISINI MEHNAT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH HOLATI

2.1. Respublika mehnat salohiyati va undan iqtisodiyotda oqilona foydalanish

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanadayaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari soni dinamikasi (ming kishi hisobida)

Hududlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	883,5	904,4	931,4	938,0	970,2	86,7	109,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1391,8	1433,5	1497,6	1536,0	1626,4	234,6	116,8
Buxoro	904,5	928,7	949,2	967,4	1013,4	108,9	112,0
Jizzax	582,3	601,1	622,2	636,1	675,2	92,9	115,9
Qashqadaryo	1345,4	1395,8	1438,3	1481,7	1568,9	223,5	116,6
Navoiy	501,6	509,8	527,3	532,1	537,1	35,5	107,0
Namangan	1207,0	1246,5	1288,2	1328,5	1432,8	225,8	118,7
Samarqand	1617,0	1672,2	1725,8	1782,1	1900,2	283,2	117,5
Sirdaryo	390,3	401,9	407,8	415,5	430,9	40,6	110,4
Surxondaryo	1057,7	1096,5	1133,5	1172,9	1246,5	188,8	117,8
Toshkent	1447,4	1477,9	1499,3	1518,2	1564,6	117,2	108,0
Farg'ona	1617,5	1667,2	1720,1	1769,3	1897,1	279,6	117,2
Xorazm	823,3	847,7	874,1	892,8	922,4	99,1	112,0
Toshkent sh.	1446,9	1461,5	1508,8	1533,6	1524,2	77,3	105,3
Respublika bo'yicha	15219,6	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	2090,2	113,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.¹

Demografik jarayonlarga bog'liq holda, yurtimizda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda (2.1-jadval).

2.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillar davomida mehnat resurslari soni 2090,2 ming kishiga yoki 13,7 foizga ortgan. Bu davrda mehnat resurslari sonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6 foizni tashkil qilgan. Ko'rilayotgan davrda mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 59 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

¹Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-betlar.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)*

Hududlar	Y i l l a r					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2007	2008	2009	2010	2011	+;-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	551,1	561,1	566,1	580,8	590,0	38,9	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1014,8	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	130,0	112,8
Buxoro	708,0	729,1	748,5	768,1	784,7	76,7	110,8
Jizzax	350,9	360,6	396,6	381,6	392,4	41,5	111,8
Qashqadaryo	877,9	908,7	934,9	971,7	1003,8	125,9	114,3
Navoiy	389,9	396,7	404,6	408,0	413,4	23,5	106,0
Namangan	738,0	763,3	790,1	815,3	841,7	103,7	114,0
Samarqand	1115,8	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	154,0	113,8
Sirdaryo	296,1	304,1	318,9	320,0	327,5	31,4	110,6
Surxondaryo	696,7	722,5	744,6	784,5	817,8	121,1	117,3
Toshkent	1068,6	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	114,9	110,7
Farg'ona	1241,3	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	126,3	110,2
Xorazm	553,6	571,1	583,0	606,7	625,2	72,6	112,9
Toshkent sh.	1132,4	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	24,3	102,1
Respublika bo'yicha	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	1183,7	111,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikasiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (2.2-jadval).

2007-2010 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan aholi soni 10735,4 ming kishidan 11919,1 ming kishiga yoki 11,0 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan aholi soni respublikaning barcha hududlarida ham ortgan. Ammo, tahlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda esa past bo'lgan.

Aholi bandligini ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etish muammolarini izchil hal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotdagi band aholi soni 2,5 foizga o'sdi va deyarli 11,9 million kishiga yetdi, iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi band bo'lgan kishilar ulushi 79,4 foizni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar – 74,2 foizni tashkil etdi. Bandlikning eng yuqori o'sish sur'atlari qurilishda (105,2 foiz), uy-joy-kommunal xo'jaligida va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda (105,1 foiz), savdo va umumiy ovqatlanishda (105,0 foiz), transport va aloqada (104,4 foiz) qayd etildi.

2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarida, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi(ming kishi hisobida)

Hududlar	Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi soni			Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	145,9	160,1	109,7	104,1	109,7	105,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	176,4	207,5	117,6	197,3	209,7	106,2
Buxoro	161,5	165,6	102,5	140,8	144,0	102,2
Jizzax	68,2	80,6	118,1	84,7	100,8	119,0
Qashqadaryo	201,5	231,4	114,8	149,3	172,6	115,6
Navoiy	150,6	165,4	109,8	56,6	59,4	104,9
Namangan	160,5	171,8	107,0	148,9	142,6	95,7
Samarqand	228,1	228,7	100,2	218,9	250,7	114,5
Sirdaryo	58,6	68,7	117,2	72,6	93,9	129,3
Surxondaryo	140,3	162,8	116,0	175,4	193,6	110,3
Toshkent	256,4	274,4	107,0	191,1	206,4	108,0
Farg'ona	266,8	299,8	112,3	222,0	286,8	129,1
Xorazm	118,6	125,2	105,5	161,2	146,7	91,0
Toshkent sh.	418,0	437,6	104,6	171,1	221,5	129,4
Respublika bo'yicha	2551,7	2779,8	108,9	2094,3	2338,4	111,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Umuman olganda, respublika va uning alohida hududlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni ortmoqda (2.3-jadval).

2.3-jadval ma'lumotlarining tahlili O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 2551,7 ming kishidan 2779,8 ming kishiga yoki 8,9 foizga o'sganini ko'rsatadi. Bunday tendensiya respublikaning barcha hududlarida ham kuzatilgan.

Aholi bandligi tarkibida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ta'minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo'lganlarning 60 foizi davlat sektori hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib (2011 y) mazkur sektorda umumiy ish bilan band aholining 20 foizdan ko'prog'i mehnat qilmoqda.

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatida va dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi (ming kishi hisobida)*

Hududlar	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lisenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni			Dehqon xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,6	29,8	647,8	103,9	96,7	93,0
Viloyatlar:						
Andijon	12,3	61,0	495,9	170,1	177,8	104,5
Buxoro	8,9	49,5	556,1	129,4	151,4	117,0
Jizzax	4,7	23,3	495,7	63,4	98,1	154,7
Qashqadaryo	10,5	43,8	417,1	128,6	150,2	116,7
Navoiy	5,7	25,8	452,6	49,4	60,8	123,0
Namangan	13,0	66,8	513,8	95,4	114,6	120,1
Samarqand	12,5	65,0	520,0	148,3	188,8	127,3
Sirdaryo	2,5	10,8	432,0	26,8	60,2	224,6
Surxondaryo	6,3	27,6	438,0	129,8	153,6	118,3
Toshkent	12,2	65,9	540,1	177,4	190,6	107,4
Farg'ona	17,8	99,1	556,7	168,2	192,7	114,5
Xorazm	5,5	23,8	432,7	81,5	106,0	130,0
Toshkent sh.	24,2	105,9	437,6	0	6,2	-
Respublika bo'yicha	140,8	698,4	496,0	1472,5	1745,0	118,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi.

Agar 1991 yilda mazkur sohada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish, transport va qurilish sohalarida ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 52 foizga yetdi.

Kichik korxona va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2007 yildagi 2094,2 ming kishidan 2011 yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko'paydi. Bu ko'rsatkichni respublika hududlari bo'yicha tahlil qilish uning bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Jumladan, o'tgan besh yil davomida kichik korxona va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Toshkent shahri, Farg'ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda mazkur sohada ish bilan band bo'lganlar soni Xorazm (9,0 foiz) va Namangan (4,3 foiz) viloyatida kamaygan.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko'paytirishda hamda yangi ish o'rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bois bu sohada ish bilan band bo'lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda (2.4-jadval).

2.4-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillarda respublika bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lekin lisenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko'paygan.

Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;

- xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mehnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1472,5 ming kishidan 1745 ming kishiga yoki 18,5 foizga ortgan.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

2.5-jadval
O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni, birlik

T/r	Yo'nalishlar	Yillar		
		2010	2011	2012 dastur
	Barcha yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, jami (ish o'rni)	950 001	956 247	967464
	shu jumladan:			
1.	Yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316	57469	57874
2.	Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408	365888	365897
	shundan:			
2.1.	Sanoatda	52 882	54941	55921
2.2.	qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy-joy qurilishi va ta'mirlash	43 632	43863	43988
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177	111871	117180
4.	Uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish	207 972	216165	217188
4.1.	shu jumladan, korxonalar bilan kooperasiyada mehnat shartnomalari asosida kasanachilik	62 518	55357	-
5.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqalar)	127 732	122399	122737
6.	Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	61 320	72850	72994
7.	Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889	9605	13594
8.	Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187	-	-

Маҳба: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 956,2 mingta ish o'rni tashkil etilishi ko'zda

tutilgan. Haqiqatda esa 970,9 mingta ish o'ri yaratildi yoki dastur ijrosi 1,5 foizga ortig'i bilan bajarildi.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda respublikada 950 mingda ortiq ish o'ri tashkil etilgan (2.5-jadval).

2.5-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda aytish joizki, 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarni bajarishga imkon berdi:

a) 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashning tarmoq dasturlari, 2011 yilgi Investisiya dasturi, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida eng muhim investisiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 48,9 mingta ish o'ri tashkil etildi.

Tashkil etilgan korxonalar va ish o'rinlarining asosiy qismi yengil, to'qimachilik, avtomobil, kon-metallurgiya, neft va gaz hamda kimyo sanoati tarmoqlariga to'g'ri keldi. 2011 yilda mamlakat bo'yicha 828 ta ishlab chiqarish obyekti, shu jumladan oziq-ovqat sanoatda (279 ta), qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida (234 ta), yengil sanoatda (201 ta), yog'ochni qayta ishlash sanoatida (36 ta), mashinasozlikda (12 ta), kimyo (8 ta), farmasevtika (3 ta) sanoatida va boshqa sanoat tarmoqlarida (55 ta) ishga tushirildi.

b) «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi, kichik biznesni rivojlantirish hududiy dasturlari chora-tadbirlarini amalga oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berish bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish, kreditlashni va moddiy xomashyo resurslarini olish imkoniyatlarini kengaytirish hisobidan kichik biznesda (kichik korxonalar va mikrofirmalar) 296,1 mingta, xususiy tadbirkorlikda 89,7 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Kredit bilan qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik subyektlarining ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini ancha kengaytirish imkonini berdi. Chunonchi, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar hajmi 3,1 trillion **so'mni**, shu jumladan, imtiyozli mikrokreditlar 613,3 milliard so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p. Bunda 20,9 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan hududlardagi tadbirkorlarga, 251,9 milliard so'mi xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga, 20,3 milliard so'm o'zining tadbirkorlik ishini tashkil etish uchun kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga berildi.

v) kasanachilik mehnatini rivojlantirish bo'yicha qator kattagina imtiyoz va preferensiyalar, shu jumladan, kasanachilarga buyurtmalarni, uskunalarni, xom ashyoni, asbob va jihozlarni imtiyozli ravishda berish shartlarini, kasanachining uydagi ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash tartibini, korxonalarni kasanachilarga to'lanadigan mablag' miqdorida ish haqi jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovdan ozod etishni ko'zda tutadigan huquqiy va normativ baza yaratilgani kasanachilikning barcha turlarini rivojlantirish hisobidan 191,9 mingta ish o'rnini tashkil etish imkonini berdi.

O'tgan davrda kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mehnat munosabatlariga sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasidagi 5,4 mingdan ortiq korxona jalb etilgan bo'lib, ularda kasanachilar bilan kooperasiya asosida mehnat shartnomalari bo'yicha 55,8 ming kishining bandligi ta'minlandi.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari 136,1 mingta ish o'rni tashkil etilishi ta'minlash imkonini berdi.

g) Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizasiya qilish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini amalga oshirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish 120,8 mingta ish o'rni, shu jumladan, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda 35,4 mingta, bog'dorchilikda va issiqxona xo'jaliklarida 37,8 mingta ish o'rni tashkil etilishini ta'minladi.

Fermer xo'jaliklarida meva-sabzavot hamda go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, 56,4 ming tonna sig'imga ega bo'lgan 55 ta sovutish kamerasini qurish va rekonstruksiya qilish 19,7 ming kishini mehnat faoliyatiga jalb etish imkonini berdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish **bo'yicha** ixtisoslashtirilgan dehqon xo'jaliklari sonining ko'payishi 27,9 mingta ish o'rni tashkil etishga yordam berdi.

d) 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikasiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risidagi dasturni, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish hududiy dasturlarini amalga oshirish 59,7 mingta ish o'rni yaratishga olib keldi. Shundan 20,2 mingta ish o'rni avtomobil va temir yo'l, gaz va suv quvurlarini o'tkazish hamda rekonstruksiya qilish obyektlarida, kommunal xo'jaligining boshqa obyektlarida, aholi punktlarini obodonlashtirish, shuningdek O'zbek milliy avtomagistrali yo'l bo'yi infratuzilmasini va servis obyektlarini rivojlantirish ishlari hisobidan tashkil etildi. Ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlarining qurilishi va ishga tushirilishi 39,5 mingta ish o'rni yaratilishini ta'minladi.

e) Ishlamayotgan korxonalarning, shu jumladan, tijorat banklari balanslariga olingan bankrot korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash 8,3 mingta ish o'rni qayta tiklashga imkon berdi.

2.6-jadval

**O'zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o'rinlari soni
dynamikasi (birlik)***

Hududlar	Y i l l a r				2011 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarish	
	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28602	48064	48118	48362	19760	169,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	55670	77889	77902	78292	22622	140,6
Buxoro	54266	72904	72998	73363	19097	135,2
Jizzax	29566	43297	43317	43515	13949	147,1
Qashqadaryo	59191	85734	86444	86890	27699	146,8
Navoiy	30139	39870	40321	40596	10457	134,7
Namangan	49672	70762	71039	71778	22106	144,5
Samarqand	63570	91712	92020	92700	29130	145,8
Surxondaryo	44296	63686	63706	64644	20348	145,9
Sirdaryo	28660	37899	37920	38623	9963	134,7
Toshkent	52719	85333	85500	86000	33281	163,2
Farg'ona	63286	90050	91173	91246	27960	144,1
Xorazm	37110	59192	59182	59575	22465	160,5
Toshkent sh.	64159	74140	80361	80663	16504	125,7
Respublika bo'yicha	660906	940532	950001	956247	295341	144,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash hududiy dasturlarining amalga oshirilishi ish bilan band bo'lish ehtiyoji yuqori darajada bo'lgan hududlarda, chunonchi, Samarqand (78,3 ming), Farg'ona (77,8 ming), Andijon (75,2 ming), Qashqadaryo (72,6 ming), Toshkent (70,4 ming), Buxoro (59,9 ming) va Namangan (59,4 ming) viloyatlarida ish o'rinlarini ko'paytirishga yordam berdi. Mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan 32 ta tuman va shaharda aholi bandligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi, ularda 118,3 mingta yoki tasdiqlangan parametrlarga nisbatan 4,2 foiz ko'p ish o'rnini tashkil etildi. Dasturni ro'yobga chiqarish doirasida 2011 yilda bo'sh turgan va yangi tashkil etilgan ish o'rinlariga 487,3 ming kishi ishga joylashtirildi, ulardan 215,7 ming nafari ayollar, 347 ming nafari qishloq tumanlarida yashovchilardir. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan ishga joylashtirilganlarning ko'pchiligini birinchi marta ish qidirayotganlar, shuningdek, o'z xohishiga ko'ra va

korxonalar qayta tashkil qilinishi hamda tugatilishi munosabati bilan ishdan bo'shaganlar - 241,9 ming kishi, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar - 214,9 ming kishi, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar - 262,1 ming kishi tashkil etadi (2.6-jadval).

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida aholining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam beradi.


2.2. Hudud qishloq aholisini mehnat salohiyatidan samarali foydalanish tahlili

Samarqand viloyati iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yetakchi viloyatlardan biri hisoblanadi. Ana shunday salohiyat yildan-yilga ortib va mustahkamlanib, viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlashga, aholini ish bilan yuqori darajada ta'minlanganligini, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "... iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta"¹.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida davlat ish bilan bandlik siyosati viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida mehnat potensialidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilishi zarur. Iqtisodiyotni yangilash sharoitida aholini ish bilan bandligi va ishsizligi bir-biriga tez almashinishi mumkin. Viloyatda aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etishda mehnat bozorining ahamiyati kattadir. Chunki viloyatda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi. Shu bois, bu

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. "Xalq so'zi" gazetasi. 2010 yil 30 yanvar, №21 (4936).

infratuzilmani samarali rivojlantirish viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi (2.1-pacm).



2.1-rasm. Mehnat bozorida aholini ish bilan bandligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

Samarqand viloyati davlat ish bilan bandlik xizmatining Dasturi mehnat bozorida faol ish bilan bandlik siyosati doiralarini qamrab olishi zarur. Viloyat darajasida bu hududiy ish bilan bandlik Dasturi sifatida ifodalanadi.

Samarqand viloyati bo'yicha 2004-2011 yillar davomida «Aholini ish bilan ta'minlash Dasturi»ning bajarilishi quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan (2.7-jadval). 2.5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2004-2011 yillar mobaynida jami davlat ish bilan bandlik xizmati organlariga murojaat qilganlar hissasi 51,8%ga oshgan. Shuningdek, tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar bu davrlar mobaynida 63,4%ga o'sgan. Viloyatda 2004 yilda davlat ish bilan bandlik xizmati orqali ishga joylashganlar hissasi jami ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan 83,0% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 yilga kelib 89,6%ni tashkil etgan. Ishga joylashganlar hissasining ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan bu davrlar oralig'ida o'sib borish tendensiyasi ko'zatildi. Bunday o'zgarishlar asosan yangi va qo'shimcha

ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga amalga oshirilgan. Ishsiz maqomini olganlar va ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar hisssasi 2011 yilda 2004 yilgan nisbatan tegishli ravishda 74,4% va 39,1% larni tashkil etgan. Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat ish bilan bandlik jamg'armasining passiv yo'nalishlariga sarflanishining tejalishi ish bilan ta'minlashning faol yo'nalishlariga sarflanadigan mablag'larni moliyalashtirishni kengaytirish uchun manba bo'lib hisoblanadi.

2.7- jadval

Samarqand viloyatida “Aholini ish bilan ta'minlash hududiy Dasturi”ning bajarilishi (kishi hisobida)

Ko'rsatkichlar	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2004-2011 y.y.da o'sish, (%)
BKM ga ish so'rab murojaat qilganlar	50255	50583	52184	53753	63880	64355	73021	76287	151,8
BKM lar yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar	41830	45244	47250	48708	58636	59020	65412	68360	163,4
Ishsiz maqomini olganlar	9153	4531	4369	4446	4797	5051	7609	6813	74,4
Kasbga o'qitish va malakasini oshirishga yo'naltirilganlar	1456	645	467	555	841	652	1056	1125	77,3
Haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'naltirilgan	4834	1771	1394	1633	2462	3245	5500	5609	116,0
Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar	2851	2091	2346	2149	1971	1154	1053	1116	39,1
Korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari	1682	1392	1425	1410	1396	3582	2690	2763	164,3

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Davlatimiz tomonidan keyingi yillarda ayniqsa, qishloq joylarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Samarqand viloyat

aholisining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Viloyat qishloq tumanlarida 2011 yilda aholi soni 2705,1 ming kishi yoki 2005 yilga nisbatan (2423,0 ming kishi) 11,6 %ga o'sgan. Qishloq mehnat resurslari tahlil qilinayotgan davrda 17,5 %ga, iqtisodiy faol aholi 10,5%ga, ish bilan band bo'lganlar 13,1 %ga hamda iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar miqdori 46,6%ga ortgan. Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar ulushi esa tahlil qilinayotgan darlarda kmamyish tendensiyasiga (56,8%) ega.

2.8-jadval

Samarqand viloyatida 2005-2011 yillarda qishloq joylarida hisoblangan mehnat resurslari balansi (ming kishi)

№	Ko'rsatkichlar	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2005- 2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Doimiy aholi soni	2423,0	2459,8	2553,8	2595,9	2630,5	2660,6	2705,1	111,6
2	Mehnat resurslari	1214,3	1232,7	1254,6	1286,1	1328,2	1403,4	1426,9	117,5
3	Shundan, iqtisodiy faol aholi	880,0	895,3	944,6	983,3	958,4	981,5	972,8	110,5
4	Ish bilan band bo'lganlar	831,3	844	876,9	902,8	984,3	927,9	940,4	113,1
5	Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar	493,9	501,4	530,4	580,2	659,8	702,2	724,1	146,6
6	Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar	317,1	321,9	346,5	322,6	324,5	248,4	180,0	56,8

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Muallif har tomonlama samarali va istiqbolli ish bilan bandlik Dasturini tuzish maqsadida uning har bir bo'limi uchun ko'rsatilishi zarur bo'lgan davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi va ular quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligiga ko'maklashish va ishsiz fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash.

a. Fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish.

b. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlash.

v. Ishsizlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlash.

2. Ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish.

a. Viloyatda ish kuchiga bo'lgan talabni ta'minlashda ish beruvchilarga ko'maklashish va hududlararo ish kuchini qayta taqsimlash.

b. Jamoat ishlarini tashkil etish.

v. Ishsizlarning tadbirkorlik tashabbusini rag'batlantirish va ko'maklashish.

2.9-jadval

Samarqand viloyati bo'yicha bandlik organlari tomonidan ishga joylashtirilgan ishsizlarning yoshi to'g'risida ma'lumot

	Yillar	2007	2008	2009	2010	2011	2006-2011 y.y.da o'sish, (%)
18 yoshgacha bo'lganlar	Jami	1027	1110	1283	1367	1486	144,7
	Shundan, qishloq joylarida	941	1006	1283	1367	1318	140,1
18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar	Jami	28686	31017	40492	39554	41502	144,7
	Shundan, qishloq joylarida	26273	28105	34941	33014	36816	140,1
30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar	Jami	17537	18963	17246	23349	25372	144,7
	Shundan, qishloq joylarida	16063	17182	17246	23349	22508	140,1
50 yoshdan yuqori yoshdagilar	Jami	0	0	48	1142	0	0
	Shundan, qishloq joylarida	0	0	24	1027	0	0

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3. Ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlarni kasbiy harakatchanligi (mobilligi) va raqobatbardoshligini oshirish.

a. Fuqarolarni kasbga o'qitishni tashkil etish.

b. Ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qiluvchilarni kasbiy yo'nalishlarini aniqlash va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.

4. Davlat ish bilan bandlik xizmati rivojlanishi.

Samarqand viloyati ish bilan bandlik xizmati organlari faoliyatlari bo'yicha yuqorida keltirilgan yo'nalishlarining tahliliy natijalariga fikrimizni qaratsak.

I.a. «Fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish» punkti bo'yicha.

2.9-jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda ish axtaruvchi fuqarolarni ishga joylashtirish ulushi har yili oshib bormoqda. Yosh tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda fuqarolarni ishga joylashtirish tahlil etilayotgan davrlar oralig'ida barchasi 144,7% o'sishga ega bo'lgan, shundan qishloq joylarida esa 140,1% ortgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning yuksalish davrida ish bilan bandlik xizmati nafaqat yangi turdagi faoliyatlarga ishchi kuchini joylashtirish, balki mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanish, ishsizlarni qayta o'qitishni turli dasturlarini ishlab chiqish, zarur malakaga ega ishchilarni tanlab olish usullari va ishchi kuchiga talabni oshirish imkoniyatlari hamda shart-sharoitlariga ega bo'ladi. Iqtisodiyotning tanazzuli davrida, ish bilan bandlik xizmati organlari mehnat bozorining kan'yukturasidan kelib chiqqan holda aholining ish bilan bandligi muammolarining yechimi to'g'risida maqbul takliflarni berishi mumkin. Mehnat bozorini tahlil qilishda ish bilan bandlikka ko'maklashish doirasidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ish bilan bandlik xizmatining samarali faoliyatini baholash, ish bilan bandlik siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish, balki ish bilan bandlik muammolari bo'yicha yangi yechimlarni taklif qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

2.10-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida ish qidiruvchi fuqarolarni ishga joylashtirish 2007-2011 yillar mobaynida muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich mazkur yillar oralig'ida 165,7 %ga oshgan. Shundan, o'quv yurtlarini bitirganlar ichida o'rta maxsus kasb hunar kollejlarini bitirganlarning ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichi tahlil etilayotgan yillar ichida eng yuqori ko'rsatkichga, ya'ni 7 barobarga oshgan. Yosh tarkibi bo'yicha esa mazkur davrlar oralig'ida 16-29 yoshgacha bo'lganlar 164,6 %ga, 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar 159,8 %ga, 50 yoshdan yuqori bo'lganlar 159,8

%ga oshgan. Buning asosiy sababi viloyat mehnat bozoridagi demografik jarayonlar bilan izohlanadi.

2.10-jadval

Samarqand viloyatida ish qidiruvchi fuqarolarni ishga joylashtirish (kishi hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007- 2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Ishga joylashtirilgan fuqarolar soni	41255	44884	50048	58757	68360	165,7
2	16 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar	25943	28166	38877	34381	42705	164,6
3	30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar	15312	15535	15654	23349	25372	160,1
4	50 yoshdan yuqori	177	334	40	228	283	159,8

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu o'rinda aytilish joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 iyuldagi "Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to'g'risida"gi 353-son qaroriga asosan, haq to'lanadigan jamoat ishlari quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

- ish qidirayotgan shaxs sifatida mehnat organlarida ro'yxatga olingan fuqarolarga ularning vaqtincha ish haqi (mehnat daromadi) olishi va ish qidirayotgan davrida ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat organlari tomonidan ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni vaqtincha ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- birinchi marta ish qidirayotgan va kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb qilish;

- turli sabablarga ko'ra kasb faoliyatida ancha uzilishlar bo'lgan shaxslarni (ilgari bolalar tarbiyasi, bemorlar va oilaning keksa a'zolariga qarash bilan mashg'ul bo'lgan, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilinganlar va boshqalar) mehnatga qayta tiklash;

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash.

2.3. Viloyat aholisini ish bilan bandligini ta'minlash holati tahlili

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholini ish bilan bandligini ta'minlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash birinchi navbatda, qishloq joylari aholisining foydali mehnat bilan band bo'lishini, uning mehnat daromadiga ega bo'lishi, mamlakat uchun uning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda bandligini, aholini yashash sharoitini va turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi bo'yicha Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Toshkent viloyati va Andijon viloyatidan so'ng beshinchi o'rinni egallaydi. E'tiborli tomoni shundaki, birgina 2011 yilda viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 4810,4 mlrd.so'm yoki 10,9 %ga o'sgan, shundan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 11,4 %ga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 7,7 %ni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,9 %, jami xizmatlar hajmi 17,3 %ga, aholiga pullik xizmat ko'rsatish esa 13,0 % va qurilish ishlari 30,6 %ga o'sgan. Keyingi yillarda viloyatda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish ham jadal rivojlanmoqda. O'rganilayotgan davrda viloyatda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish 9,2 %ga, asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi 11,5 %ga, shu jumladan chet el investisiyalari 44,7 %ga, shundan to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyasi hajmi 22,8 5ga ko'paygan (2.11-jadval).

Samarqand viloyatida 2011 yilda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishi bu hych shubhasizki, viloyatda yaratilga yangi ish o'rinlari va unda band bo'lgan aholiga davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizasiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikasiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy

ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi"¹.

2.11.-jadval.

2011 yil davomidagi Samarqand viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari holati

(yillik)

Qo'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Miqdori	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Yalpi hududiy mahsulot	<i>mlrd. so'm</i>	4810,4	110,9
Sanoat mahsulotlari	<i>mlrd. so'm</i>	2004,2	111,4
Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish	<i>mlrd. so'm</i>	1448,4	109,2
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	<i>mlrd. so'm</i>	2546,5	107,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi	<i>mlrd. so'm</i>	1113,2	111,5
<i>shu jumladan</i> chet el investisiyalari	<i>mlrd. so'm</i>	66,1	144,7
<i>shundan</i> to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyasi	<i>mlrd. so'm</i>	33,5	122,8
Qurilish-pudrat ishlari	<i>mlrd. so'm</i>	733,6	130,6
Chakana tovar aylanmasi	<i>mlrd. so'm</i>	2171,4	116,9
Jami xizmatlar hajmi	<i>mlrd. so'm</i>	2284,1	117,3
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	<i>mlrd. so'm</i>	888,8	113,0

Manba: Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida

Samarqand viloyati aholisi 2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 3197,2 ming kishiga yetdi. Viloyati aholisi 2007 yilda 3015,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 2007 yilga nisbatan 6,0 % ga o'sgan.

Samarqand viloyatda mehnat resurslari salmog'i 2007 yilda 1662,4 ming kishi bo'lib, 2011 yilda 1794,6 ming kishiga yetgan. Bu ko'rsatkich 2007 yilga nisbatan 2011 yilda 8,0 %ga o'sgan. Ish bilan band bo'lgan aholi soni 2007 yilda 1115,7 ming kishi, 2011 yilda 1271,0 ming kishiga yetgan yoki mos davrga nisbatan 13,9 %ga o'sishi kuzatildi.

Tahlillardan ko'rinadiki, jami ish o'rinlariga talab 2007 yilda 49,8 ming kishi bo'lsa, 2011 yilda 68,3 ming kishiga o'sgan yoki 2007 yilga nisbatan 2011 yilda 37,1 %ga o'sish tendensiyasiga ega. Jami ish o'rinlariga bo'lgan talab

¹ И.А.Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: “Ўзбекистон”, 2009 – 31-бет

viloyatda 2007-2008 yillarda biroz kamayib, 2009 yildan boshlab o'sish tendensiyasiga ega.

Samarqand viloyatida ishsizlik darajasi 2007 yilda 5,4 %, 2011 yilda esa 4,7 %ga teng bo'lib, ko'rilayotgan davrda bu ko'rsatkich pasayish tendensiyasiga ega.(2.12-jadval).

2.12-jadval.

Samarqand viloyatida mehnat resurslari va aholining ish bilan bandligi holati
(ming kishi hisobida)

Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2007-2011 yillarda o'sishi (% da)
Aholi soni	3015,2	3046,2	3102,5	3140,2	3 197,2	106,0
Mehnat resurslari	1662,4	1698,2	1720,1	1742,3	1794,6	108,0
Ish bilan band bo'lganlar	1115,7	1141,5	1160,8	1229,9	1271,0	113,9
Jami ish o'rinlariga talab	49,8	49,4	59,0	62,5	68,3	137,1
Ishsizlik darajasi (%da)	5,4	5,1	4,0	4,8	4,7	-

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shunday ekan, mehnat bozorini tartibga solish siyosati quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

- ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida muvozanatga erishish;
- ishsizlarni mehnatga yo'naltirishni rag'batlantirish;
- ish bilan band bo'lmagan fuqarolarning ish izlashda kasbiy harakatchanligini oshirish;
- ish izlayotgan har bir kishini ish bilan ta'minlamoq.

Davlat ish bilan bandlik siyosati doirasida ish bilan bandlikka ko'maklashish ikki yo'nalishda, passiv va faol ish bilan bandlik siyosati ko'rinishlarida amalga oshiriladi.

Ish bilan bandlikning passiv siyosati davlat ish bilan bandlik xizmati orqali ishsizlarga nafaqalar to'lash, ishsizlarni kasblarga qayta o'qitish va jamoat ishlarini

tashkil etish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ish bilan bandlik siyosatining bu varianti davlatning amalga oshiradigan joriy xarajatlari nuqtai-nazaridan bir muncha tejamlidir. Biroq, ish bilan bandlikning passiv siyosati iqtisodiyotning yuksalishi davrida mehnat bozorining yuqori egiluvchanligi va ishchi kuchining kasbiy harakatchanligi, iqtisodiyotning istiqbolli mustaqil ish izlash uchun bir muncha keng shart-sharoitlari mavjud bo'lgandagina o'zini oqlashi mumkin. Qolgan holatlarda passiv siyosat ishsizlik uzoq muddat davom etishini qisqartirish, ish bilan band bo'lmagan aholini ish bilan bandligini rag'batlantirishni kuchaytirish omili bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotning yuksalish davrida ish bilan bandlik xizmati nafaqat yangi turdagi faoliyatlarga ishchi kuchini joylashtirish, balki mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanish, ishsizlarni qayta o'qitishni turli dasturlarini ishlab chiqish, zarur malakaga ega ishchilarni tanlab olish usullari va ishchi kuchiga talabni oshirish imkoniyatlari hamda shart-sharoitlariga ega bo'ladi. Iqtisodiyotning tanazzuli davrida, ish bilan bandlik xizmati organlari mehnat bozorining kan'yukturasidan kelib chiqqan holda aholining ish bilan bandligi muammolarining yechimi to'g'risida maqbul takliflarni berishi mumkin. Mehnat bozorini tahlil qilishda ish bilan bandlikka ko'maklashish doirasidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ish bilan bandlik xizmatining samarali faoliyatini baholash, ish bilan bandlik siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish, balki ish bilan bandlik muammolari bo'yicha yangi yechimlarni taklif qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ishga joylashtirishda **bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarining** o'tkazilishi samarali usullardan biri hisoblanadi.

Samarqand viloyatida 2011 yilda o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari natijalari bo'yicha viloyat bo'yicha jami 78 marta bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi o'tkazilib, bunda 2549 ta korxona va tashkilotlar ishtirok etdi. Korxona va tashkilotlardan 18738 ta bo'sh ish o'rinlari taqdim etilib, yarmarkaga jalb qilingan fuqarolar soni 19504 tani tashkil etdi. Shundan 46,6%idan ortiqroq kishilar ish joylari bilan ta'minlandilar. Ishga joylashganlarning orasida yoshlar 47,4%ni,

ayollar 44,8%ni, nogironlar 0,86%ni, qolgan qismini boshqa toifa kishilari tashkil etdi.

Ishsizlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashda, o'quv jarayonida zamonaviy o'quv texnologiyalari va usullarini ta'lim dasturiga kiritish va foydalanish, kelajakda ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

2.13-jadval

Samarqand viloyatida bandlikka ko'maklashish markazlari orqali ishga joylashtirilgan ishsiz aholi soni

Ko'rsatkichlar	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y	2011 y.	2006-2010 y.y.da o'sish, (%)
BKMga murojaat qilganlar, jami	53753	63880	64355	73021	76287	135,8
Ish bilan ta'minlangan	48708	58636	59020	65412	68360	134,3
Ish bilan ta'minlanganlar ulushi (% da)	90,6	91,8	91,7	89,6	89,7	-

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Samarqand viloyatida bandlikka ko'maklashish markazlari orqali ishga joylashganlar ulushi 2007 yilda 90,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 89,7 %dan iborat bo'lgan (2.13-jadval).

Ishsizlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida yangi yo'nalish bo'lib, ish beruvchilarning talablariga muvofiq maqsadli o'qitish va konkret ish o'rinlari bo'yicha alohida kasblarga o'qitish hisoblanadi. Bunda korxonalarga kerakli mutaxassislarni tayyorlashda kasbga o'qitish xizmati oldida buyurtmachi sifatida chiqadilar. Shuningdek, buyurtmachi korxonalar o'zlarining ishchi-xodimlari uchun o'quv dasturlari tayyorlash, qayta tayyorlash kurslarini o'tish, maqsadli o'qitishni tashkil etish, malaka oshirish maqsadlarida buyurtmalar berishlari mumkin.

Aholini ish bilan bandligini ta'minlashda bu yo'nalish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: davlat ish bilan bandlik xizmati tarkibida xodimlarni kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'limlarini

tashkil etish; kasbga yo'naltirishni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqish; bu yo'nalish bo'yicha yetuk mutaxassislar va psixologlarni jalb etish; ishsizlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha psixologlar maslahatini berish va boshqalar.

Mehnat bozori oqilona shakllanishini asosiy va hal qiluvchi sharti-mehnat resurslari bilan ish joylari o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashdir.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash qancha dolzarbligini to'la tasavvur qilish uchun demografik vaziyatga bir nazar tashlaylik. Bizda aholining tabiiy o'sishi keyingi yillarda bir oz sekinlashganiga qaramasdan, hamdo'stlik mamlakatlari orasida eng yuqoriligicha saqlanib turibdi. Keyingi yillarda, respublikamizda aholining o'sishi o'rtacha 1,5% ni tashkil etmoqda. Bu esa, mehnat resurslarini mutanosib ravishda o'sishiga olib kelmoqda.

2.14-jadval

Samarqand viloyatining mehnat resurslari va aholining ish bilan bandligi (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	2007y.	2008y.	2009y.	2010 y	2007-2010 yillarda o'sish, (%)
Aholi umumiy soni	3002,1	3060,5	3102,5	3140,2	104,6
Mehnat resurslari	1687,6	1695,1	1732,1	1782,1	105,6
Ish bilan bandlar soni	1180,2	1152,0	1232,1	1229,9	104,2
Ishlashga muhtoj aholi soni	22,5	23,1	23,2	23,6	104,9
Shu jumladan: yoshlar	6,1	6,2	6,2	6,3	103,3

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2007-2010 yillar davomida Samarqand viloyatining aholisi soni 104,6 %ga ko'paygan. Bu davrlar mobaynida mehnat resurslari 122,5 %ga oshgan. 2007-2010 yillar mobaynida yaratilayotgan yangi va qo'shimcha ish o'rinlarining ortib borishi natijasida ish bilan band bo'lganlar

hissasining bu davrlarda 104,2 %ga o'sishiga erishilgan. Ishchi kuchini ishdan bo'shashining maksimal darajasi 2007 va 2008 yillarga to'g'ri keladi.

Bu yillarda ishchi kuchini keskin ishdan bo'shashi aniq bir maqsadda – qishloq xo'jaligidan ortiqcha ishchi kuchini chiqarilishi asosida sodir bo'ldi (2.14-jadval).

Umuman olganda, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, qishloq aholisi turmush darajasi yaxshilanishida, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirishda qishloq aholisi mehnat salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

III BOB. HUDUD QISHLOQ AHOLISI MAVJUD MEHNAT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Qishloq mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va ish bilan bandlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi, iqtisodiy erkinlashtirish jarayoni, qolaversa, aholini tarmoqlararo bandligini shakllantirish bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoni bilan uzviy bog'lanib bormoqda. Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida bu sohani kengroq rivojlantirish borasida, kichik biznesning huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mehnatga layoqatli aholining ko'p ukkladli iqtisodiyot tizimida samarali band bo'lishiga bevosita bog'liqligi uchun ham ishchi kuchining bandligi, ishsizlik masalalari nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi, shuningdek, oldimizdagi qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish inson resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Bu esa shaxslarning manfaatlari, yashash tarzi, taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog'liq. Respublikamizda mavjud inson resurslaridan oqilona, ishchi kuchidan unga bo'lgan talab va ehtiyojga qarab foydalanish bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan hozirgi davrda, umuman, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun mavjud inson resurslarini takror hosil qilish va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganish kerak.

Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil, o'z navbatida, uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi asos hisoblanadi. Jamiyatning mehnat salohiyatini kuchaytirish, undan samarali foydalanish muammolari bozor munosabatlari davrida birmuncha murakkablashadi va ularning

yechimini topish iqtisodchi olimlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikada inson resurslaridan samarali foydalanish uchun quyidagi tamoyillarga asoslanish zarur:

- inson resurslarini boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish va boshqaruv tarkibini takomillashtirish;
- ijtimoiy yo'naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirish (qishloq xo'jaligidagi ortiqcha inson resurslarini iqtisodiyotning boshqa sohalariga, sanoatga va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirish);
- inson resurslarining sifat jihatlarini – kasbiy tayyorgarligi, ma'lumoti, malakasini oshirish; viloyatlarda, hududlarda inson resurslarining sifat jihatlarini oshirishga qaratilgan mahsus dasturlar ishlab chiqish.

Mamlakat mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning eng birinchi yo'li bo'lib qonunchilik bazasini mustahkamlash, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularni amaliy hayotga tadbiiq etish hisoblanadi.

Ishchi kuchi bandligini tarkibiiy o'zgartirish va oshirishni amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan asosiiy yo'nalishlar va tashkiliy-huquqiiy negizni vujudga keltirish respublikaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiiyotiga o'tishining milliiy modelida o'z ifodasini topgan. Bu yo'nalishlar bo'yicha ko'rilgan faol chora-tadbirlar ishchi kuchi bandligi uchun zarur sharoitlar yaratish va ommaviiy ishsizlik ehtimolini oldini olish, kishilarning o'z mehnat natijalaridan manfaatdorligini oshirish, boqimandalik kayfiyatidan xalos etish imkonini berdi.

Bandlikni oshirishda, yangi ish joylarini yaratishdagi bugungi eng muhim hal qiluvchi masala, kichik biznes va xususiiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularga keng imkoniiyat va imtiiyozlar tashkil qilib berishdir. Ta'kidlash joizki, respublikamiz iqtisodiiyotiga bozor munosabatlari kengroq kirib borishi barobarida, kichik biznes va xususiiy tadbirkorlikning ahamiiyati ortib bormoqda. Chunki, u aholi guruhlarining aksariiyat qismi uchun o'z faoliyatini namoyon etadigan soha va daromad manbaidir. Bu sohada ko'pincha ayollar, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, ma'lumot va yetarli mehnat tajribasiga ega bo'lmagan aholi guruhlari shu

yerdan ish topish imkoniga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mehnatga qobiliyatli aholi guruhlariga nafaqat ish bilan band bo'lish va daromad ko'rish, balki o'z faoliyatini mustaqil va erkin boshqarish, o'z qobiliyatidan kelib chiqib, iste'dodini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Biz kichik, o'rta va xususiy biznes yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqye' egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda, ayniqsa, kichik shaharlar va qishloq joylarida ish bilan ta'minlashda muhim omilga aylanishini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'ymoqdamiz».

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulkiy munosabatlarning o'zgarib borishi aholining samarali tarmoqlararo bandligini shakllantirishda muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirishni talab etmoqda. Yurtboshimiz ham xususiy tadbirkorlik faoliyatiga alohida e'tibor berib, «Kichik va o'rta biznes yaxshi yo'lga qo'yilsa, aholini, ayniqsa, qishloq xo'jaligidan bo'shagan ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, mahalliy xom ashyo, dehqonchilik va qurilish resurslarini qayta ishlashni takomillashtirish, ichki iste'mol bozorini xalq iste'mol mollari bilan ta'minlash kabi dolzarb muammolarni bartaraf etish mumkin. Eng muhimi – kichik va o'rta biznes vositasida real mulkdorlar tabaqasini shakllantirish mumkin bo'ladi. Shunday qilyalikka, iqtisodiyotimiz tizimida, aholi bandligini ta'minlash tizimida kichik va o'rta biznes yetakchi kuchga aylansin», - deya ta'kidlaydi.

Shuni aytib o'tish zarurki, kichik biznes ravnaqi avtomobil, metallurgiya, neft-kimyoy va boshqa sohalardagi yirik sanoat korxonalari rivojiga jiddiy halal bermaydi va ularni qarama-qarshi qo'yish ham noto'g'ridir. Kichik korxonalar butlovchi qismlar yetkazib berishi, ayrim uzellarni yig'ib berishi, innovasion faoliyat ko'rsatishi mumkin. Fan va texnika tez sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan davrda noyob yoki kam seriyali sanoat mahsulotlariga ehtiyoj, shuningdek, o'ziga xos va mahalliy talablarni qondirishga mo'ljallangan mahsulotlarga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishni kichik korxonalarda joylashtirish iqtisodiy jihatdan samaralidir. Shuning uchun sanoati rivojlangan mamlakatlarda shunday sanoat strukturasi vujudga kelganki, u

yirik kompaniyalarning ko'plab mayda mustaqil korxonalari bilan hamkorlikda ishlashiga asoslanadi. Bunday hamkorlik sanoat strukturalarining xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Masalan, eng qimmat ish o'rinlari davlat va aralash ukladda bo'lsa, eng arzon ishchi o'rinlari xususiy ukladda, ayniqsa oilaviy xo'jaliklarda yaratiladi. Masalan, «SamKo'chavto» qo'shma korxonasida yaratilgan bitta ish o'rni 120 ming AQSh dollari, «Kabul tekstil» korxonasida yaratilgan bitta ish o'rni esa, 90 ming AQSh dollariga teng bo'ldi. Arzon ish joyini yaratish yengil bo'lgan yerda bandlikning tez o'sishi kuzatiladi. Shu sababdan, qo'shimcha ish joylarining 2/3 qismi dehqon va fermer xo'jaliklarida, kichik va o'rta biznesda yaratiladi.

Bu o'rinda yurtboshimizning quyidagi so'zlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: Agar biz aholimizning asosiy yirik qismi yirik korxonalar qurish imkoni bo'lmagan, xizmat ko'rsatish sohasi kam rivojlangan qishloq joylarda va kichik shaharlarda istiqomat qilishini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan xususiy tarmoqni har tomonlama rivojlantirish va rag'batlantirish yurtimizda naqadar zarur ekanligini aniqlab yetish qiyin emas. Masalaning yana bir ahamiyatli jihati bor. To'qimachilik, milliy poyabzal tikish, kulolchilik, amaliy san'at, ganchkorlik, temirchilik, o'ymakorlik bilan shug'illanadigan kichik-kichik ustaxona va do'konlari ko'p bo'lgan. Aholining muayyan qismi shu kasb-hunarlar bilan band bo'lib, ularning mahorati avloddan-avlodga o'tib kelgan. Biz buni yoddan chiqarmasligimiz, bugungi dune taraqqiyotidan kelib chiqqan holda ularni yangi texnik asosda qayta tiklashimiz kerak.

Hozirgi kunda kichik biznes sohasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekan, ushbu sohadagi kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- hududlarning demografik, tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini chuqur o'rganib, ularga mos keluvchi kichik va o'rta tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish hisobiga samarali bandlikni shakllantirish;

- kichik biznes subyektlarining muntazam va davomli faoliyat ko'rsatishining asosiy sharti – hududlarda bozor infratuzilmasi tashkil etilishining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, yo'lga qo'yish;

- qishloq joylarida sanoat korxonalarini joylashtirishda hududiy xom ashyo resurslarini, mehnat va tabiiy resurslarini hisobga olish;

- ishlab chiqarishning progressiv shakllari asosida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligiga erishish;

- aholi daromadlarini kichik biznesni rivojlantirish hisobiga oshirish;

- mahalliy xom ashyolardan yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarining salmog'ini oshirish.

Ushbu nuqtai nazardan, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznesning ahamiyatli tomonlari e'tiborga olinib, yangi ish joylari tashkil etish orqali ishsizlikning oldi olinishiga, iqtisodiy o'sish sur'atlari belgilanishiga, kichik biznes bilan shug'ullanuvchi oilalar iqtisodi mustahkamlanishiga, xodimlar taqsimoti joy-joyiga qo'yilishiga hamda ushbu sohada band bo'lgan aholi qatlamlarining moddiy va ma'naviy tomondan rag'batlantirilishiga doimiy e'tibor berilmoqda. Shunga qaramay, hozirgi kunda kichik biznesning erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar vujudga kelmoqda, ya'ni:

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi aholi qatlamlari iqtisodiy, huquqiy bilimlarining talab darajasida emasligi;

- kichik biznes uchun kadrlar tayyorlashda qator muammolarning mavjudligi;

- ular faoliyatining rivojlanishida aylanma mablag'larining yetishmasligi;

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va bu borada ustuvorlikka erishish maqsadida, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va mablag'lardan maqsadli foydalanishda ayrim muammolarning saqlanib qolayotganligi va h. k.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, qaysi hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida ustuvorlikka erishilsa, shu hudud ijtimoiy-iqtisodiy tomondan barqaror rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish joylari yaratish va shu orqali aholini samarali tarmoqlararo bandligini shakllantirish muammosini bir qadar hal etilishiga erishishni, aholi daromadlarini

oshirishni, hamda turli tarmoq sohalari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarning mustahkamligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda inson resurslaridan samarali foydalanishni hozirgi kundagi va yaqin istiqboldagi eng muhimi yo'nalishi – qishloq joylardagi va qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnatga layoqatli aholini qayta taqsimlash va ularning boshqa tarmoq hamda sohalarda bandligini oshirishdir. Buning uchun qishloq joylarda bozor tizimini barpo etish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni tezkorlik bilan barpo etish va kengaytirish, qishloq xo'jaligida islohotlarni keskin chuqurlashtirish zarur.

Bizda ham ishchi kuchlarining bir qismini milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko'chirish, qishloqlardagi yashirin ishsizlikni tugatish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Qishloq xo'jaligidan bo'shatib olingan ortiqcha ishchi kuchlarini mashinasozlik, avtomobilsozlik, neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan industrial sohalarga sarfarbar etish kerak. Shuningdek, qishloqda butunlay yangi hisoblangan zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, kommunikasiya, va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini vujudga keltirish lozim. Hammomlar, sartaroshxonalar, ustaxonalar, suratxonalar va shu kabi obyektlarni qurib ishga tushirish kerak. Qishloq joylarda bank, kredit va sug'urta tizimlarining bo'linmalari yaratilishi zarur. Xullas, qishloq aholisi uchun maishiy xizmatning hamma turlarini yaratish, xizmat ko'rsatish tarmog'ini keng rivojlantirish, kichik biznesga, xususiyl tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish talab etiladi.

“Bugungi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotganini hyech kim inkor etolmaydi. Ayni vaqtda kasanachilik fuqarolarni, birinchi navbatda, xotin-qizlar, aytiqsa, ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda¹”.

¹ Karimov I.A.. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 56b. 26-bet.

Samarqand viloyat qishloqlari qiyofasi – bu eng avvalo mazkur hududda istiqomat qilayotgan, o'zining fidokorona mehnati bilan ushbu maskanlarning yanada rivojlanishi va ko'rkamlashishiga hissa qo'shib kelayotgan qishloq aholisining bugungi kundan mamnunligi va ertangi kunga bo'lgan ishonchini ifodalovchi umumiy manzaradir. Bu qiyofa qishloqlarning obodligi, ulardagi uy-joylarning chiroyli va ko'rkamligi, aholiga xizmat ko'rsatuvchi ko'plab tashkilotlar, maktablar, bolalar bog'chalari, istirohat bog'lari va boshqa ko'ngilochar muassasalar, ishlab chiqarish korxonalari, ma'muriy binolarning tashqi va ichki ko'rinishlari, ulardan foydalanish qulayligi bilan belgilanadi.

Samarqand viloyati qishloqlari qiyofasi birinchi navbatda ularda yashovchi odamlarning umumiy kayfiyati va ruhiyatiga beovsita ta'sir ko'rsatadi. Agar qishloq qiyofasi ko'rkam va chiroyli bo'lsa, unda yashovchi odamlarning hayoti ham go'zal bo'ladi, ishlari unumli, o'zlari baxtli bo'ladi.

Shunga ko'ra, mamlakatimiz rahbari qishloqlarimiz qiyofasiga birinchi navbatda ta'sir ko'rsatuvchi uy-joy va ijtimoiy obyektlar qurilishiga katta e'tibor qaratdi. Chunki, endilikda sobiq sho'rolar tuzumi davridan qolgan bir xil "qolip"da qurilgan, o'zining tashqi ko'rinishi bilan odamlarda ijobiy taassurotlar qoldirmaydigan, foydalanish jihatidan qulayliklarga ega bo'lmagan turli bino va inshootlar, muayyan bir rejasiz, o'ylanmasdan, pala-partish asosda qurilgan uylar – xalqimiz turmush darajasi hamda farovonligiga mutlaqo mos kelmaydi.

3.2. Mikromoliyalashni kengaytirish va kasanachilikni rivojlantirishning qishloqlarda ishsizlik darajasini pasaytirishdagi samarasi

O'zbekistonda mikromoliyalash hozircha keng rivojlangan emas. Mikromoliyalashning mumkin bo'lgan barcha xizmatlari orasida mikro kreditlar va mikrolizing (juda oz darajada) ustunlik qilmoqda. Ayni vaqtda shuni e'tirof etish kerakki, 70 mingdan ortiq mijozni qamrab olgan mikromoliyalash O'zbekiston aholisi katta qismining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasidagi eng real

imkoniyatdir¹. Mikroreditlash dasturi bo'yicha ishlayotgan tadbirkorlar o'rta hisobda 2-3 nafar oila a'zosini o'z biznesiga tortmoqdalar. Bu esa O'zbekistonda ish bilan bandlik sohasidagi mavjud muammolarni va demografik vaziyatning xususiyatlari nuqtai nazaridan qaraganda g'oyat muhimdir. Ushbu xususda Prezidentimiz I. A. Karimov ham o'z nutqlarida: Mikroreditlarning qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlari, yangi daromad manbai ekanligini hammamiz aniq ravshan tushinib olishimiz kerak², -deb ta'kidlab o'tganlar.

Mikromoliyalash jarayoni rag'batlantirilsa, ish bilan bandlik, ayniqsa qishloq joylarda, tadbirkorlikni kengaytirish muammolarini hal qilish uchun uning ahamiyati juda katta bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda har turli yashirincha moliyalash sxemalarining o'ziga tortishi kamayadi. Mikromoliyalashning yanada rivojlanishini rag'batlantirish choralari eng avvalo me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Garchi mikromoliyalashning ayrim qismlari O'zbekistonda 7 yildan beri mavjud bo'lsa-da, biroq ularning huquqiy bazasi bir tekis ishlab chiqilmagan³. Mikromoliyalashga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Mikromoliyalash – kam ta'minlangan va ish qidirayotgan odamlarga mikrobiznesni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida moliyaviy mablag'lardan foydalanish imkonini berish jarayoni. U quyidagi jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi:

- kam ta'minlangan aholi qatlamlarining zarur ehtiyojlarini qondirish va ularni xatarlardan himoyalash;
- tadbirkorlikni, shu jumladan, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish;
- ayollarning iqtisodiy faoliyatda qatnashishini kengaytirishga yordam berish;
- ijtimoiy taraqqiyotini kuchaytirish;
- kam daromadli odamlarni real iqtisodiyot jarayonlariga tortish;
- yangi ish joylarini yaratish;

¹ O'zbekistonda mikromoliyalashni rivojlantirish. Ishchi ma'ruza 2005/01. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Toshkent 2005.

² I. A. Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Toshkent.:O'zbekiston. 2002. 226-bet.

³ O'zbekistonda mikromoliyalashni rivojlantirish. Ishchi ma'ruza 2005/01. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Toshkent 2005.

- moliya bozorining yangi segmentlarini shakllantirish.¹

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni istiqbollashda ko'p tomonlamali va omilli yondashuv talab etiladi. Chunki kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-xodisalar va jarayonlar bir necha omillar ta'sirida yuz beradi. Jumladan tabiiy-iqlimiy, ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar. Sanab o'tilgan omillar barcha iqtisodiy jarayonlar kabi mehnat bozori rivojlanishining istiqbol ko'rsatkichlariga ham o'z ta'mirini o'tkazmay qolmaydi. Tabiiy-iqlimiy va ekologik omillar mehnat bozori istiqboliga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning natijasida bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va shu kabi tarmoqlar tabiiy-iqlimiy sharoitlarga yuqori ta'sirchan bo'lib, ularning keskin o'zgarishi va noqulay kelishi tufayli mazkur tarmoqlarda faoliyat yuritayotganlar ishsiz aholiga aylanib qolishi va mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Lekin mazkur ta'sir tufayli vujudga keladigan ishchi kuchi taklifi miqdorini oldindan bashorat qilib bo'lmaydi, shu sababli ham mehnat bozorining istiqbolini belgilash doimo muammoli vazifa hisoblanadi.

Mamlakat mehnat bozorining istiqbol ko'rsatkichlari bevosita demografik omillarga bog'liqdir. Chunki aynan demografik jarayonlarga kelgusida mehnat salohiyatining miqdor va sifat jihatdan shakllanishi, taqsimlanishi, ishchi kuchiga aylanishi va taklif sifatida mehnat bozorida paydo bo'lishini ta'minlaydi. Demografik jarayonlarning bugungi holati mehnat bozorining kamida kelgusi 16 yillik istiqboliga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Chunki bugun tug'ilgan chaqaloq 16 yildan so'ng mehnat bozorida o'z ishchi kuchini taklif etsa, undan so'ng yana bir necha 10 yillar davomida to nafaqaga chiqquncha faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Garchi so'nggi yillarda mamlakatimizda aholining o'sish ko'rsatkichi kamayib borayotgan bo'lsada (tug'ilishning kamayishi va manfiy migrasion saldo hisobiga), biroq yaqin kelgusi yillarda ham aholi soni o'sishining nisbatan yuqori

¹ Moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati kam ta'minlangan aholi qatlamlariga rentabelli biznes yaratish imkonini beradi. Bu biznes tufayli daromad o'sadi; ikkinchidan, boquvchi kasal bo'lib qolganida, mol-mulkning bir qismi qo'ldan ketganida va boshqa vaziyatlarda fuqarolarning ish bilan bandligi oshadi, shuning hisobiga ishsizlik pasayadi; odamlarda yaxshi kelajakka umid paydo bo'lib, bu umid biznes rivojlanib borgan sari ertangi kunga ishonchga aylanadi; shahar bilan qishloq o'rtasidagi iqtisodiy farqlar yo'qolishiga yordam beradi.

ko'rsatkichi saqlanib qolishi kutilmoqda. Chunki ko'p farzandli bo'lish, oilada ham o'g'il ham qiz farzandlarga ega bo'lish, yagona qiz yoki o'g'il farzand bilan cheklanmaslik kabi istaklar millatimizga xos bo'lgan xarakterdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar va xizmat ko'rsatish metodologiyasi, shuningdek, tashkiliy tuzilmalarning takomillashuvi kam daromad oluvchilarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, mikromoliyaviy tashkilotlar (MMT) deb nom olgan moliyaviy tashkilotlar paydo bo'lishiga olib keldi. "Mikro" deyilishining sababi shuki, operasiyalar hajmi nisbatan kam bo'lgan (kreditlar 50 AQSh dollari miqdorida va depozitlar jami 5 AQSh dollari miqdorida bo'lgan).

Markaziy Osiyo mamlakatlariga mikromoliyalash konsepsiyasi o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida, ya'ni boshqa mintaqalardagiga qaraganda ancha kech kirib keldi. Boshqa rivojlanayotgan bozorlar kabi mikromoliyalash xizmatlari bozori ham jadal o'sib bormoqda. Uning kredit portfelining hajmi bir yilda 40% ga, mijozlarining soni esa 20-30 %ga oshmoqda. Markaziy Osiyoda esa mikromoliyalash bozorlari endigina shakllana boshladi – mijozlarni qamrab olish darajasi hali juda past va aholi jamg'armalarini safarbar etish hali boshlangani yo'q (guruh bo'lib kreditlash dasturlari doirasidagi majburiy jamg'armalarni hisobga olmaganida)¹.

Mikromoliyalash kichik biznesning barqaror rivojlanishiga hamda xususiy tadbirkorlikning kengayishiga yordam beradi. Mikromoliyalashdan foydalanish osonligi tufayli u moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yo'li bilan aholini kichik biznesga tortishni kengaytiradi. Qoida tariqasida, bu hol fuqarolarning turmush darajasi o'sishi bilan, ijtimoiy tengsizlikning qisqarishi, o'z salohiyatini ishga solishning yangi imkoniyatlari, rivojlangan mulkdorlar qatlamining vujudga kelishi bilan birga yuz beradi. Bunda MMTlarning g'oyat epchilligi va moliyaviy xizmatlar bozoridagi innovasiyalarga moyilligi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Mikromoliyalash yangi moliyaviy struktura sifatida butun moliya tizimini mustahkamlaydi va

¹ O'zbekistonda mikromoliyalashni rivojlantirish. Ishchi ma'ruza 2005/01. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Toshkent 2005.

kengaytiradi, jamg'armalar va kreditlash bozorining rivojlanishiga va diversifikasiyalanishiga yordam beradi. Mikromoliyalash keyinchalik banklardan kredit olish uchun kredit tarixini shakllantirish mexanizmi ham hisoblanadi. MIMlarning o'zini-o'zi qoplashi va moliyaviy barqarorligi muhimdir, chunki amalda mikromoliyalash ko'pincha muassislarga daromad keltiradigan va qarz oluvchilarning ish bilan band bo'lishini ta'minlaydigan biznesdir.

Mikromoliyalash ish bilan bandlikni kengaytirish hamda ishsizlikka qarshi kurash vositasi sifatida ayniqsa samaralidir. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati odamlarning tadbirkorlik salohiyatini amalga oshirish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Mikromoliyalashni iqtisodiyot va biznesning ochiqqligini oshirish usuli deb ham hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, MIMning rivojlanishi norasmiy kreditlash sektorini qisqartiradi, moliyaviy xizmatdan foydalanish esa oluvchining faoliyati ochiqqligini oshiradi.

O'zbekistonda mikromoliyalashni tijorat banklari, jamg'arma kredit uyushmalari (JKU) shuningdek, byudjetdan tashqari fondlar (Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash fondi, Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi davlat fondi) va xalqaro moliya institutlarining (YeTTB, OTB va boshqalarning) kredit liniyalari amalga oshirmoqda. Banklar mikromoliyalashda yetakchi rol o'ynamoqda – mikrokreditlar umumiy hajmining 80%dan ko'prog'i ular hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekistonda quyidagi byudjetdan tashqari fondlar va xalqaro moliya tashkilotlarining imtiyozli mikrokredit liniyalari berilmoqda:

1. Dehqon va fermer xo'jaliklari assosiasiyasi (DFXA) huzuridagi Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash fondi quyidagilarni amalga oshiradi:

- Kredit qaytarilishining garov, sug'urta va boshqa kafolatlarini taqdim etish sharti bilan dehqon va fermer xo'jaliklarini imtiyozli kreditlash;

- Yangi tashkil etilgan dehqon va fermer xo'jaliklariga ularning dastlabki (boshlang'ich) kapitalini shakllantirish uchun 3 yilgacha muddatga kreditlar berish;
- Tashkil etilayotgan, DFXA tarkibiga kiradigan kichik korxonalarni qaytarib berish asosida aylanma mablag'lar bilan ta'minlash;
- Dehqon va fermer xo'jaliklarining mulki olinayotgan chet el mikro kreditlarini garov bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, ularning ustav fondlarini shakllantirishda ulush qo'shib qatnashish.

2. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tarkibidagi Ish bilan bandlikka yordamlashish davlat fondi (IBYoF) ish joylarini saqlash va yangilarini yaratish maqsadida kreditlar beradi.

Aholining ish bilan bandligini ta'minlashda kasana-chilikning roli tobora ortib bormokda. Shuning uchun Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: "Takror va takror ta'kidlab aytish kerakki, ishlab chikarish korxonalari bilan kooperasiya asosida barpo etiladigan kasanachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmokda. Bu borada mamdakatimizda ish beruvchi korxonalar uchun xam, kasanachilik bilan shug'ullanuvchi axoli uchun xam rag'batlantirishning yaxlit va ta'sirchan tizimi yaratilgan",¹ - deb kursatgan.

Kasanachilik ish joylarini yaratish qishloq xo'jaligi korxonalariga barqaror rivojlanishini eng kam mablag' talab etgan xolda eng katta foyda keltiradigan xolda ta'minlash maksadiga xizmat kiladi. Shu bilan birga kasanachilik sohasi aholining ish bilan bandligi va oila byudjeta daromadlarini oshirishning kushimcha manbaiga aylangan.

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasi kasanachilikning birgina ish bilan bandlik darajasini oshirish, axoli daromadlarini kupaytirish uchungina emas, shuningdek iktasodiyot tarmoklarini rivojlantirishdagi ahamiyatidan yakdol dalolat beradi. Shuning uchun mexnatni tashkil etish-ning bu usuliga aloxida e'tibor karatilmokda. Masalan, Garbiy Yevropada 1995 yilda uyda ishlovchilar soni 4,0

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009.

mln. kishini tashkil etardi. Xrzir ularning soni 60,0 mln. nafar-dan ortgan. 2010 yilga borib esa kasanachilar soni 100,0 mln. nafarga yetishi muljallanmokda.¹

G'arb mamlakatlari kompaniya va firmalarida kasanachilik kuprok past rentabelli yoki qo'l mexnatini talab qiladigan maxsulotlar ishlab chikarishda keng kullaniladi. Ammo keyin-gi yillarda kugina davlatlarda, jumladan Buyuk Britaniyada kasanachilikdan iktisodiyotning barcha tarmokdarida qo'llanilmokda. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi "yangi" (elektron) kasanachilik ommalashiga olib keldi. Ular katoriga yukori malakali kompyuter dastur-chilari, dasturiy maxsulotlar tayyorlovchilar, dizaynerlar, tarjimonlar, jurnalistlar, ofis (Internet yoki telefon orkali) xizmatchilar kiradi. Stokgolm iktisodiyot maktabi utkazgan tadkikot ma'lumotlariga kura Rossiya Federapiyasida mamlakat axolisining taxminan 1,7 % - 2,7 mln. kishi "yangi" kasanachilik - masofadan turib ishlash bilan banddir.

3.1.-jadval

Kasanachilik afzalliklari

Ish bsruvchilar uchun	Kasanachilar uchun
Soliq imtiyozlari hamda kasanachilar ish haqi fondidan yagona ijtimoiy tulovdan ozod kilinishi	Amaldagi konunchilik va jamoa shartnomalari asosida ijtimoiy ximoya
Yangi ish joylari yaratish uchun mablaglarni tejash	Ish joyiga transportda borib kelish uchun vakt va mablagni tejash
Yuqori texnologax maxsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish maydonlari va dastgoxlar bushashi	Ish vaqtini mustaqil ravishda belgilash, buyurtmalarni bajarishga oila a'zolarini jalb etish
Mehnat uiumdorligini kasanachilar uzgaruvchan ish vakti bo'yicha ishlashlari xisobiga oshirish	Yangi bilim va ko'nikmalar olish, mehnat jamoasi a'zosi xissasini saqlab kolish

Tailandda esa kasanachilar umumiy soning 41,1 % ni tukimachilik sanoati va kiyim-kechak tikishda, 27,0 % ni zargarlik buyumlari tayyorlashda, 8,9 % ni

ozik-ovkat sanoatida, 7,2 % ni mebel va uinchokdar ishlab chikarishda, 3.7 % ni ulgurji va chakana savdoda ish bilan bandlar tashkil etadi.

Xorijiy mamlakatlarda kasanachilik bilan bandlarning kuyidagi turlari mavjuddir:

- korxona personali a'zolari;
- tuliksiz ish kunida ish bilan bandlar;
- muddatli shartnomalar buyincha vaktinchalik ish bilan bandlar;
- "mini-maks" shartnomalari buyicha ish bilan bandlar, ya'ni ishlagan soatlariga xdk oladigan xodimlar; -ishchi shirkatlari a'zolari; -mustakil kompaniyalar sheriklari; chaqiriq (kompaniya taklifi bilan) buyicha ishlovchilar.

Mamlakatda kasanachilikni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish o'rtasidagi kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari tug'risida"gi PF-3706-son Farmoni aloxida ahamiyatga ega bo'ldi. Mexnatni tashkil etishning kasanachilik shakli afzalliklari kuyidagilar bilan izohlanadi:

1. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar urtasida kooperasiya alokalarining rivojlanishi ishlab chikarishga ish bilan band bulmagan axolini jalb kilishga xizmat kiladi. Bunda sanoat korxonalarining buyurtmalarini mexnat resurslari ortiqcha bulgan kishlok axoli punktlarida joylashtirish nuli bilan kishlok axolisini kasanachilikka jalb etish imkoniyatlari ayniksa katgaligini ta'kidlash kerak. Kasanachilik oila byudjeta daromadlarini oshirishning juda muxim, kushimcha manbai ekanligini aloxida ta'kidlash lozim.

2. Kasanachilar bilan kooperasiya yirik sanoat korxona-lariga yangi maxsulotlarni oilaviy ishlab chikarish yoki uzlashtirishni yulga kuyish, shuningdek kup mexnat talab kiladigan buyurtmalarni kasanachilarga topshirish orkali korxonalarning ishlab chikarish kuvvatlarini yukori texnologik maxsulot ishlab chikarish uchun bushatish imkonini beradi.

3. Korxonalar bilan kasanachilar o'rtasidagi kooperasiyani mehnat shartnomasi asosida yo'lga qo'yish kasanachilarni ishonchli ijtimoiy ximoya

kilishni ta'minlaydi. Bu esa kasanachilikni rivojlantirish xalkaro konsepsiyasiga, xususan Xalkaro Mexnat Tashkilotining 1996 yildagi 177- son Konvensiyasiga to'liq mos keladi.

Mamlakatda yirik biznes bilan kasanachilik o'rtasidagi kooperasiya kuyidagi prinsiplarga asoslangan:

- kasanachilar ijtimoiy ximoyasi va mexnati muxofazasi-ni ta'minlashni inobatga olgan xolda axolini uy mexnati faoliyatiga keng jalb kilish uchun kulay sharoit yaratish;

- sanoat korxonalari bilan ularning buyurtmalari asosida uyda maxsulot ishlab chikarish va xizmat kursatish, birin-chi navbatda sanoat ishlab chikarishi samaradorligini oshirish imkonini beradigan tikuvchilik, attorlik, ipakchi-lik, kayta ishlash, mebel, elektron sanoatida, shuningdek telekommunikasiya, servis va xizmat kursatish tarmokdarida kasanachilik bilan shugullanayotgan fukarolar urtasida kooperasiyani rivojlantirish;

- korxonalarning buyurtmalari asosida uyda ishlayotgan fukarolarga buyurtmachilar tomonidan xom ashyo, materiallar va yarim fabrikatlarni yetkazib berish xamda buyurtma asosida ishlab chikargan maxsulotlarni sotishni kafolatlashda barkaror sharoitlar yaratish.

Kasanachilar tomonidan 34,0 mlrd. so'mlik maxsulot ishlab chikarildi va xizmatlar ko'rsatildi. Shundan 40 %dan ko'pi qishloq joylarg to'g'ri keladi. Kasanachilik uchun ish urinlari yaratgan korxonalar bu borada o'zlariga berilgan imtiyozlar xisobidan 1 mlrd. so'mdan ortik mablag'ni tejashga erishdilar.

Kasanachilikni rivojlantirishda mamlakat xududlarida muayyan ijobiy tajriba guplangan, jumladan, Andijon viloyatida kasanachilik sox.asi^a 24 mishtaga yakin yangiish urinlari yaratilgan. 200^?Yi^{da viloyagdagi 700 tadan kuprok korxona bilan 8963 iafar kasaiachi mexnat shartnomasi asosida ish olib borgan. Bu ish joylarining 71,0 % kishlok joylariga tugri keladi.

Samarqand viloyatda qishloq joylarida kasanachilikni rivojlantirish bu yerdagi demografik xolat tufayli, ayniksa, dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi paytda viloyat korxonalarida kasanachilar 90 ga yaqin yunalishda faoliyat ko'rsatmoqdalar. 2010 yilda ular tomonidan 155 turdagi 3 mlrd. so'mga yaqin mahsulot ishlab chikarildi va xizmatlar kursatildi. Uzloriga berilgan imtiyozlardan foydalanilgan viloyat sanoat korxonalari 85,0 mln. sumdan kuprok mablag'ni tejashga erishdilar.

Samarqand viloyatida xam kasanachilik asosida axolini ish bilan ta'minlash muammosini xal etish chora-tadbirlari kurilmokda. Keyingi uch yil ichida kasanachilikni rivojlantirish xisobiga 8559 nafar kishi ish bilan ta'minlandi. Viloyat qishloq xo'jaligi korxonalari aholi bilan uzaro manfaatdor shartnomalar asosida ishga muxtoj axolini ish bilan ta'minlamokdalar.

Shu bilan birga kasanachilikni yanada jadal sur'atlarda rivojlantirishni ta'minlash uchun ba'zi muammolarni hal etish talab qilinadi. Jumladan, yaxshi ma'lumki, qishloqda hunarmandchilik faoliyati kasanachilikning eng ommalashgan turlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ular mehnat faoliyatini kasanachilik sifatida e'tirof etish, hunarmandlar ham kasanachilar uchun belgilangan imtiyozlardan foydalana olishlari uchun tegishli huquqiy masalalarni hal etish talab etilmokda.

Uy mehnati bilan shug'ullanayotganlarga ish bilan bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan imtiyozli kreditlar ajratish foydadan holi bo'lmasdi. Ayni paytda ishsizlarni "Usta-shogird" usulida qishloq mehnat bozorida talab bo'lgan kab-xunarlariga o'kitish va o'rgatishni moliyalashtirishni yanada kengaytirish ham kerak. Bu chora-tadbirlar kasanachilik barcha afzalliklaridan foydalangan holda qishloq aholisini ish bilan ta'minlash darajasini oshirish ijtimoiy vazifasini xal etishga xizmat kiladi.

3.3. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash vazifalaridan biri mehnat salohiyatidan samarali

foydalanishdir. Bu masala shaxslarning manfaatlari, yashashi, rivojlanishi va ertangi kuni bilan bog'liq. Respublikamizda mavjud mehnat salohiyatidan oqilona, ishchi kuchidan unga bo'lgan talab va ehtiyojga qarab foydalanish bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan hozirgi davrda, umuman, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun mavjud mehnat salohiyatini takror hosil qilish va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganish kerak.

Mehnat salohiyatidan foydalanishning ekstensiv va intensiv yo'llari mavjud:

- ekstensiv yo'l - ishchilar umumiy sonining, mehnatga layoqatli aholi bandligining o'sishi, mehnatga layoqatlilik davri va ish vaqtining uzunligi, shuningdek, jami mehnat hajmining ortishi bilan ifodalanadi;

- intensiv yo'l - mehnat faoliyati samarasini oshirishni bildiradi (shaxsiy, tashkiliy-iqtisodiy, moddiy-texnikaviy omillarni); mehnat unumdorligi o'sishiga asoslanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mehnat salohiyatidan foydalanishdagi ekstensiv tendensiyalar fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish manfaatlari zid kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida asosiy e'tibor jamiyat mehnat salohiyatidan, mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishga qaratilishi kerak. Bularni hal qilish uchun:

- ish joylarining miqdor va sifat jihatidan mavjud mehnat salohiyati bilan muvozanatini ta'minlash;

- ishchilar sonini qisqartirgan holda ishlab chiqarishni o'stirib borishning ta'sirchan yo'llarini yaratish;

- mehnatda band bo'lish sharoitlari va shakllarini o'zgartirish talab etiladi.

O'zbekistonning o'ziga xos demografik jaryonlarini hisobga olganda, ya'ni aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi munosabati bilan mehnat salohiyatidan samaraliroq foydalanish muammosi kelib chiqadiki, mazkur muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, respublika mehnat salohiyatining sifat va miqdori tomonlari o'zaro muvofiqligini ta'minlash kerak. Shundagina mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish mumkin.

Mehnat salohiyati o'zgaruvchan funksiya bo'lib, uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$f(x)=x(a,b), (3.1);$$

Bu yerda: $f(x)$ -mehnat salohiyati;

a - mehnat salohiyatining sifat ko'rsatkichi;

b - mehnat salohiyatining miqdor ko'rsatkichi.

Bugungi kunda respublikada mehnat salohiyatidan samarali foydalanish uchun asosan quyidagi uch tamoyilga asoslanish zarur:

- ijtimoiy yo'naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirish (qishloq xo'jaligidagi ortiqcha mehnat salohiyatini iqtisodiyotning boshqa sohalariga, sanoatga va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirish);

- mehnat salohiyatining sifat jihatlarini – kasbiy tayyorgarligi, ma'lumoti, malakasini oshirish; viloyatlarda, hududlarda mehnat salohiyatining sifat jihatlarini oshirishga qaratilgan «maxsus dasturlar» ishlab chiqish;

- mehnat salohiyatini boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, boshqarish tarkibini takomillashtirish lozim.

Boshqacha qilib aytganda, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida O'zbekiston uchun mehnat salohiyatidan foydalanishning asosiy yo'li iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini keskin o'zgartirish orqali mehnatkashlarning mehnatda band bo'lish tarkibini takomillashtirishdan iboratdir. Mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish uchun, bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lgan mehnat salohiyatini milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida intensiv ravishda qaytadan taqsimlash, mehnatda bandlik tarkibini, tuzilishini xizmat ko'rsatuvchi sohalar hisobiga o'zgartirishga qaratilgan ishlarni jadallashtirish kerak.

Mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- tarmoqlar, hududlar bo'yicha mehnat salohiyatining qanday joylashganligi;

- ijtimoiy mehnat unumdorligi;
- mehnat qaytimi va hokazolar.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan ishga layoqatli odamlarni moddiy ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish sohasi o'rtasida qayta taqsimlash yuz beradi.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasida ishlayotganlar ulushi iqtisodiyotda band aholining 55-70 foizini tashkil etadi. Masalan, AQShda ishchilar umumiy sonining kamida 70 foizi, Yaponiyada - 61 foizdan ko'prog'i, Fransiyada - 65, Germaniyada - salkam 60 foizi band. Buning ustiga, ko'pgina mamlakatlarda mikroelektronika, axborotlarni qayta ishlash va yetkazish, ko'pgina operasialarni avtomatlashtirish bilan bog'liq eng yangi texnika xizmat ko'rsatish sohasiga juda tez joriy qilinmoqdaki, bu mazkur sohani intensivlashtiradi va uni ko'p jihatdan industrial sohaga yaqin qilib qo'yadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida jahonda jiddiy o'zgarishlarga erishilganini va uning yetakchi tarmoqlardan biriga aylantirilganini qayd qilish bilan birga, respublikamida ham huddi ana shunday o'zgarishlarga erishish zarurligini ta'kidlamoqchimizki, ular mehnat ahlining yanada oyoqqa turishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni hozirgi kundagi va yaqin istiqboldagi eng muhimi yo'nalishi – qishloq joylardagi va qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnatga layoqatli aholini qayta taqsimlash va ularning boshqa tarmoq hamda sohalarda bandligini oshirishdir. Buning uchun qishloq joylarda bozor tizimini barpo etish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni tezkorlik bilan barpo etish va kengaytirish, qishloq xo'jaligida islohotlarni keskin chuqurlashtirish zarur.

Bizda ham ishchi kuchlarining bir qismini milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko'chirish, qishloqlardagi yashirin ishsizlikni tugatish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Qishloq xo'jaligidan bo'shatib olingan ortiqcha ishchi kuchlarini mashinasozlik, avtomobilsozlik, neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan industrial sohalarga sarfarbar

etish kerak. Shuningdek, qishloqda butunlay yangi hisoblangan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, kommunikasiya, zamonaviy ishlab chiqarish va maishiy xizmatlari tarmoqlarini vujudga keltirish lozim. Hammomlar, sartaroshxonalar, ustaxonalar, suratxonalar qurish kerak. Qishloq joylarida bank, sug'urta tizimlarining bo'linmalari yaratilishi zarur. Xullas, qishloq aholisi uchun maishiy xizmatning hamma turlarini yaratish, xizmat ko'rsatish tarmog'ini keng rivojlantirish, kichik biznesga, xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat unumdorligini oshirishga qodir bo'lgan mashina va uskunalarning kiritilishi, ishlab chiqarishni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish miqyoslarini kengaytirish zarur. Shuningdek, yangi texnika bilan bir vaqtda milliy iqtisodiyot uchun mutlaqo yangi texnologiyalarni – elektron nur, plazma, impuls kabi texnologiyalarni keng qo'llashni, dehqonchilik va chorvachilikda esa industrial, intensiv texnologiyalarga o'tishni ta'minlash muhimdir.

Ish joylari bilan mehnat salohiyati muvofiqlashtirilayotgan hozirgi paytda, ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib qolgan qurollarni yangilariga almashtirib, unumsiz ish joylari tugatilgandagina ishlab chiqarish potensialining texnik darajasini va mehnat unumdorligini sezilarli oshirish mumkin. Umuman, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unumdorligini bir necha bor oshirishga yordam beradigan fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish mehnat salohiyatini insonga bevosita xizmat qiladigan sohalarga tobora ko'proq yo'naltirish imkonini yaratadi. Rivojlangan davlatlarda bozor munosabatlarining shakllanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish ko'p jihatdan ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan, davlat iqtisodiy strategiyasini, xo'jalikni boshqarish amaliyotiga joriy etishga qodir mutaxassislar, ishchi kadrlarga bog'liq. Hozirgi davrda inson omili rolining ortib borishi fan-texnika taraqqiyotining, bozor iqtisodiyotining ham muhim xususiyati bo'lib, yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqish va undan foydalanish xodimlarga, ularning ma'lumot darajasiga, bilim doirasining

kengligiga, malakasiga, yangilikni idrok etish hamda amalda o'zgartirish mahoratiga bog'liq.

Mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligi o'zaro bog'liq bo'lgan son va sifat ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Son ko'rsatkichlari resurslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilinganligi darajasini aks ettirib, iqtisodiyotda bandlar soni bilan aniqlanadi. Iqtisodiyotda bandlarning mehnat salohiyatining umumiy soniga nisbati mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ijtimoiy mehnat faolligini tavsiflaydi. Ushbu nisbat ijtimoiy-foydali mehnat bilan bandlik darajasini belgilaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish bilan bandlik muammosi nazariy ham amaliy jihatlarida yangicha ma'no kasb etadi. Mehnat bozori ish bilan bandlikni tartibga solishda faol o'rin egallaydi. Mehnat bozorida asosiy milliy resurs-ishchi kuchi shakllanadi hamda korxonalar, tarmoqlar va mintaqalar bo'yicha taqsimlanadi.

Ish bilan bandlikni ishchi kuchiga talabni kengaytirishga (ularni foydali faoliyatga jalb qilish ko'lamlari, shart-sharoitlari va shakllarini ta'minlashga) yo'naltirilgan chora-tadbirlar va harakatlar yig'indisi deb ta'riflash mumkin. Bu borada "to'liq" va "samarali" bandlik farqlanadi.

Ish bilan "to'liq" bandlik sobiq ittifoqdagi mehnatning umumiyligi va majburiyligini aniq ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan amalga oshirilishidir. Ish bilan to'liq bandlikka aholini jalb qilishning har qanday darajasida erishish mumkin, bunda u aholining ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga muvofiq kelishi, taklif etilayotgan ish o'rinlari iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq oqilona bo'lishi kerak.

Inson o'z istagi bo'yicha ijtimoiy faoliyatdagi bandlik sohalaridan birini tanlashga haqlidir. Biroq asosiy faoliyat turi daromad keltiruvchi, shaxs farovonligini oshiruvchi va rivojlanishni ta'minlovchi kasbiy mehnat bilan band bo'lishdir. Kasbiy mehnat bilan band bo'lish darajasi xodimlar umumiy sonining mehnat salohiyati soniga nisbati bilan ta'minlanadi, hamda mehnat unumdorligi va jamiyat rivojlanishi ijtimoiy samaradorligi sohasida erishilgan yutuqlarni aks

ettiradi. Buning ma'nosi shuki, ish bilan bandlikdagi mazkur mutanosiblik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish manfaatlariga, uni jadallashtirish natijalariga, fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligini oshirish manfaatlariga to'liq mos kelsa, shuningdek sog'lom avlodni yetishtirishga, yuqori malakali. yaxshi ta'lim olgan serxarakat xodimlarni tarbiyalashga qulay sharoit yaratib bersa, bunday bandlik proporsiyasi eng optimal deb hisoblanadi.

Yalpi ichki daromadning o'sishi va iqtisodiyotning tarmoqlar va sohalari bo'yicha ish bilan bandlar soni, ish haqining o'sishi sur'atlari o'rtasidagi o'zaro nisbati mehnat salohiyatidan foydalanishning umumiy holatini ko'rsatadi.

Mehnat salohiyatidan foydalanishning son ko'rsatkichlari ishlab chiqarishning moddiy va hususiy omillari o'rtasidagi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi mutanosiblikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Mehnat salohiyatidan foydalanishning sifat ko'rsatkichlari ijtimoiy mehnat unumdorliginio'zgarishi orqali bevosita yalpi daromadga ta'sir ko'rsatishi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasi ko'rsatkichi yalpi daromadni iqtisodiyotdagi bandlarga o'rtacha qanchadan to'g'ri kelishi bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishi sur'atlari rejalashtirilayotgan davr uchun belgilangan mehnat unumdorligini hisobot davr va o'tgan davrga nisbati bilan foizda o'lchanadi. Ushbu ko'rsatkichni rejalashtirishdan maqsad yalpi ichki mahsulotni mehnat unumdorligini oshirish hisobiga maksimal darajada oshirishdir.

Mehnat unumdorligi o'sish sur'atlariga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bu omillar ma'lum darajada bir-biri bilan bog'liq bo'ladi va doimo o'zgarib mehnatni tejalish darajasi oshib boradi. Yalpi ichki mahsulotning oshishiga bevosita va bilvosita (mehnat unumdorligining oshishi orqali) ta'sir etuvchi asosiy omillar mavjud.

Barcha omillarni o'z ichki mazmuni va mohiyatiga ko'ra uchta asosiy guruhga: moddiy-texnik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-ruhiy guruhlarga bo'lish mumkin. Mehnat unumdorligini oshirishning moddiy asosi fan -texnika va texnologiyani rivojlantirish, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdir. Shuning uchun moddiy-texnika omillari guruhini yetakchi va qolganlarini

belgilovchi deb qaraladi. Jami mehnat sarfining son va sifat kursatkichlari yordamida aks ettirilgan barcha omillarning yalpi daromadning o'sish darajasiga ta'sir qilish dinamikasi mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni tavsiflaydi.

Mehnat unumdorligi iqtisodiy faoliyat olib borayotgan korxona, tashkilot yoki biror bir tarmoq bo'yicha ham asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu ko'rsatkich xodimlarning mehnat faoliyatidagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib, mehnat xarajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdori ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi. Bunda mehnat xarajatlari ishchi xodimlar soni yoki bajarilgan mehnat sarfini o'z ichiga oladi. Mehnat samaradorligi eng kam mehnat, xarajatlar bilan yuqori mehnat natijalariga erishish darajasini, aholi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq, mehnatning miqdor ko'rsatkichlarini emas, balki shu bilan birga mehnatning sifat natijalarini ifodalaydi. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichining xususiyatlaridan biri shundaki, unda mehnat resurslari tejalishiga erishiladi. Mehnat samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish darajasini faqat sarflangan vaqt va ish sifatini hisobga olgan holda emas, balki bir xil xodim hisobiga sarflangan mehnat xarajatlarini ham aks ettiradi.

Moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida – sanoatda, qurilishda, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini keskin oshirish zarur. O'zbekistonda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unumdorligining nisbatan pastligi bir tomondan, texnikaviy qurollanish darajasi pastligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, mehnatkashlarning kasb-korlik darajasi pastligidadir. Shuning uchun bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri shuki, ish joylarini zamon talablariga mos keladigan darajada, texnikaviy-tashkiliy o'zgartirishlarni amalga oshirish kerak.

Fan-texnika jadal taraqqiy etayotgan hozirgi davrda shuni ta'kidlash zarurki, eng tez rivojlangan tarmoqlarda xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning keng miqyosli tizimini vujudga keltirish muammosi ko'ndalang bo'lib qoldi. Bu muammoni hal qilish uchun barcha o'quv yurtlarida, kasb dargohlarida ta'lim-tarbiya tuzilishini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 10 martdagi Farmoyishiga binoan, mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Bozor islohotlari talablaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan mazkur dastur respublika mehnat salohiyatidan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyoti malakali kadrlardan imkoni boricha ko'proq foydalanishni taqozo etadi. Lekin, O'zbekistonda eng murakkab muammolardan biri – mahalliy aholini, ayniqsa, yoshlarni industrial mehnatga jalb etishdir. Uni hal qilish uchun masalaga milliy iqtisodiyot, iqtisodiy mustaqillik, hatto Vatan fidoiylarini tarbiyalash nuqtai nazaridan yondashish zarur. Nega o'zbek millatiga mansub ishsizlar industrial ishlab chiqarishdagi bo'sh joylarni egallashga intilmaydilar? Fikrimizcha, buning uchun, birinchidan, yetarli texnik bilimga, malakaga ega bo'lish kerak. Maqsadga erishish uchun:

- birinchidan, bandlik jamg'armasi mablag'lari hisobidan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash uchun turli xildagi kurslar ochishni keng yo'lga qo'yish;
- ikkinchidan, korxonalar qurilayotganda ularning yo'nalishi, vazifalari to'g'risida aholini oldindan xabardor qilish;
- uchinchidan, industrial mehnatga mehrni bolalikdan singdirish;
- to'rtinchidan, mehnatni rag'batlantirish, ishchilarni ijtimoiy-maishiy jihatdan ta'minlash masalalarida korxonalar to'la mustaqilligini ta'minlash kerak;
- beshinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali sanoat korxonalari mehnatini targ'ib etish, ishchilar obro'-e'tiborini ko'tarish ayni muddaodir.

Umumlashtirib aytganda, milliy industrial kadrlarni shakllantirish respublikaning iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ta'minlashning muhim shartidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublikada mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish uchun, Farg'ona vodiysidagi aholining zichligidan kelib chiqadigan va aksincha, shimoliy va g'arbiy zonalarda ishchi kuchining yetishmasligi bilan bog'liq muammolar o'z yechimini topishi zarur. Buning uchun

aholi zich yashaydigan hududlarda mehnatni ko'proq talab qiladigan qo'shimcha sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloqlarda mahalliy xom ashyodan foydalanish hisobiga kulolchilik, tikuvchilik, teri oshlash, naqqoshlik, quruvchilik va boshqa bir qancha tarmoqli kichik hamda o'rta korxonalarni ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Umuman, hukumat qarorlarida belgilangan xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarni jadal qurib bitkazish va ishga tushirish, ichki rezerv va imkoniyatlardan butun choralar bilan foydalanishni ta'minlash lozim.

Bugungi kunda mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo'llaridan yana biri – yoshlarni o'z istaklariga ko'ra, mehnat salohiyati yetishmayotgan boshqa joylarga jalb etishni keng yo'lga qo'yish kerak. Biroq, buning uchun ko'chib boruvchilarga yetarli sharoitlar (uy-joydan tortib yuqori ish haqiqacha) yaratib berish talab etiladi. Shuningdek, respublikada mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishda xalqaro ishchi kuchi migrasiyasining ham ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy istiqlol sharofati bilan mehnat salohiyatidan foydalanishning yangi imkoni, ya'ni yosh va malakali mehnat salohiyatini jahon mehnat bozoriga chiqarish, boshqa xorijiy yurtlarga borib ishlash imkoniyati yuzaga keldi.

Mehnat salohiyatini boshqarish tizim sifatida bir qator bo'g'inlardan iborat. Bunda ishchi kuchlarini taqsimlash va qayta taqsimlashni boshqarish jarayoni muhim o'rin tutadi. Mehnat salohiyatini boshqarish obyekti - ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, taqsimlash, undan foydalanish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, mehnat salohiyatini boshqarish quyidagi vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi:

- turli xildagi kasb-malaka va ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ishchilar soni bilan ish joylari tarkibi o'rtasidagi muvofiqlikni yuqori darajada ta'minlash;
- ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonini mukammallashtirish;
- mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ta'sirchan tizimini yaratish;

– yoshlarda mehnat tarbiyasini iloji boricha ertaroq boshlash.

Hozirgi zamonda ishlab chiqarishning ishchi kuchi miqdori va sifatiga bo'lgan talabini qondirishga uni respublika tarmoqlari va hududlari o'rtasida shunchaki «taqsimlash» orqali erishib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus yangi boshqaruv tizimini yaratish zarur. Shuningdek, fikrimizcha, mehnat salohiyatini to'g'ri boshqarish uchun, undan samarali foydalanishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu dasturlar har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur hududlar sharoitlariga mos keladigan qilib tuzilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish va boshqarishdan maqsad – aholining mehnatda bandligini oshirish, milliy iqtisodiyotning mehnat salohiyatiga bo'lgan talabini to'laroq qondirish, shuningdek, mehnatkashlarning malaka, ma'lumot, kasb-korlik darajalarini ko'tarish va ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlariga moslashtirish orqali jamiyat mehnat salohiyatidan samarali foydalanishini yo'lga qo'yishdir.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Mehnat, aholi bandligi va ijtimoiy muhofazasini o'rganuvchi respublika ilmiy markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Iqtisodiyot instituti, Iqtisodiyot Vazirligi va Statistika Davlat Qo'mitasi tuman mehnat birjalari oldida aholining mehnatda bandligi to'g'risidagi yangi nazariyalardan va jahon tajribasidan to'g'ri foydalangan holda bu dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishdek mas'uliyatli vazifalar turibdi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mehnat salohiyatini tadqiq etish uning resurs tarzidagi mazmuni va mohiyatini ham sifat, ham miqdor jihatidan ochib beradi. Mehnat salohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanishi, uning tadqiq etilishi va o'rganilishi bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida «ishchi kuchi», «mehnat resurslari», «mehnat salohiyati» kabi iqtisodiy tushuncha va kategoriyalarning ham ma'no va mazmuni birmuncha o'zgarib bormoqda. Bu tushunchalar faqat ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda emas, balki kundalik amaliyotimizda ham keng foydalanila boshlandi. Iqtisodiy adabiyotlarda hozirgacha jamiyatning mehnat salohiyati tushunchasiga turli xil qarashlar mavjud bo'lib, bu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan «mehnat resurslari» va «ishchi kuchi» tushunchalarini undan farqlash zaruriyati bo'lganligi sababli ushbu tushunchalar munozarali masala bo'lib qolmoqda.

2. Ishchi kuchiga talabning o'sishi yoki kamayishi (dinamikasi) quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan aniqlanadi: mavjud bo'lgan va yangidan yaratiladigan ishchi joylari; investisiya salohiyati va uning takror ishlab chiqarish tuzilishi; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar; mulkchilik shakllarining turli-tumanligi; korxonalar va tashkilotlarning to'lovga qodir emasligi (bankrotligi) va hokazo. O'zbekiston sharoitida mehnat bozorining samarali shakllantirishga to'siq bo'ladigan bir qator cheklovchilar ham mavjud; iste'mol tovarlarining qimmatlashuvi; yollanma ish kuchining malakasi va safarbarligining pastligi; ish beruvchilarning yetarlicha tajribaga ega emasligi va hokazo.

3. Ish bilan bandlik xarakteri kishilarning mulkiy maqomiga bog'liq bo'ladi. Kapital sohiblari tadbirkorlik bilan band bo'lsalar, mehnat ahli yollanib ishlaydi. Ish bilan bandlik darajasini mehnat bozoridagi talab belgilaydi, ammo bozor talabi doirasida ish bilan bandlik shaklini tanlash imkoni mavjud bo'ladi. O'tish davrida ish bilan bandlikni ta'minlashning bozor qoidalari bilan birgalikda, unga davlatning aralashuvi ham yuz beradi. Davlat ijtimoiy nizolar yuzaga chiqmasligi

uchun ish bilan bandlikni oshirish choralarini amalga oshirib boradi, nodavlat sektorda yangi ishchi o'rinlarini yaratishni rag'batlantiradi, qonun yo'li bilan ish bilan bandlikni tartibga soladi.

4. Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanadayaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

5. Mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

6. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko'paytirishda hamda yangi ish o'rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi.

7. Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;
- xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mehnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

8. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining

tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlanmoqda.

9. Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

10. Samarqand viloyati davlat ish bilan bandlik xizmatining Dasturi mehnat bozorida faol ish bilan bandlik siyosati doiralarini qamrab olishi zarur. Viloyat darajasida bu hududiy ish bilan bandlik Dasturi sifatida ifodalanadi.

11. Iqtisodiyotning yuksalish davrida ish bilan bandlik xizmati nafaqat yangi turdagi faoliyatlarga ishchi kuchini joylashtirish, balki mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanish, ishsizlarni qayta o'qitishni turli dasturlarini ishlab chiqish, zarur malakaga ega ishchilarni tanlab olish usullari va ishchi kuchiga talabni oshirish imkoniyatlari hamda shart-sharoitlariga ega bo'ladi. Iqtisodiyotning tanazzuli davrida, ish bilan bandlik xizmati organlari mehnat bozorining kan'yukturasidan kelib chiqqan holda aholining ish bilan bandligi muammolarining yechimi to'g'risida maqbul takliflarni berishi mumkin. Mehnat bozorini tahlil qilishda ish bilan bandlikka ko'maklashish doirasidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ish bilan bandlik xizmatining samarali faoliyatini baholash, ish bilan bandlik siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish, balki ish bilan bandlik muammolari bo'yicha yangi yechimlarni taklif qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

12. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash birinchi navbatda, qishloq joylari aholisining foydali mehnat bilan band bo'lishini, uning mehnat daromadiga ega bo'lishi, mamlakat uchun uning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda bandligini, aholini yashash sharoitini va turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

13. Mehnat bozorini tartibga solish siyosati quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

- ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida muvozanatga erishish;

- ishsizlarni mehnatga yo'naltirishni rag'batlantirish;
- ish bilan band bo'lmagan fuqarolarning ish izlashda kasbiy harakatchanligini oshirish;

ish izlayotgan har bir kishini ish bilan ta'minlamoq.

14. Ishsizlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida yangi yo'nalish bo'lib, ish beruvchilarning talablariga muvofiq maqsadli o'qitish va konkret ish o'rinlari bo'yicha alohida kasblarga o'qitish hisoblanadi. Bunda korxonalarga kerakli mutaxassislarni tayyorlashda kasbga o'qitish xizmati oldida buyurtmachi sifatida chiqadilar. Shuningdek, buyurtmachi korxonalar o'zlarining ishchi-xodimlari uchun o'quv dasturlari tayyorlash, qayta tayyorlash kurslarini o'tish, maqsadli o'qitishni tashkil etish, malaka oshirish maqsadlarida buyurtmalar berishlari mumkin.

15. Qaysi hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida ustuvorlikka erishilsa, shu hudud ijtimoiy-iqtisodiy tomondan barqaror rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish joylari yaratish va shu orqali aholini samarali tarmoqlararo bandligini shakllantirish muammosini bir qadar hal etilishiga erishishni, aholi daromadlarini oshirishni, hamda turli tarmoq sohalari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarning mustahkamligini ta'minlaydi.

16. Mikromoliyalash jarayoni rag'batlantirilsa, ish bilan bandlik, ayniqsa qishloq joylarda, tadbirkorlikni kengaytirish muammolarini hal qilish uchun uning ahamiyati juda katta bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda har turli yashirincha moliyalash sxemalarining o'ziga tortishi kamayadi. Mikromoliyalashning yanada rivojlanishini rag'batlantirish choralari eng avvalo me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

17. Mikromoliyalash kichik biznesning barqaror rivojlanishiga hamda xususiy tadbirkorlikning kengayishiga yordam beradi. Mikromoliyalashdan foydalanish osonligi tufayli u moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yo'li bilan aholini kichik biznesga tortishni kengaytiradi. Qoida tariqasida, bu hol fuqarolarning turmush darajasi o'sishi bilan, ijtimoiy

tengsizlikning qisqarishi, o'z salohiyatini ishga solishning yangi imkoniyatlari, rivojlangan mulkdorlar qatlamining vujudga kelishi bilan birga yuz beradi.

18. Mikromoliyalash ish bilan bandlikni kengaytirish hamda ishsizlikka qarshi kurash vositasi sifatida ayniqsa samaralidir. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati odamlarning tadbirkorlik salohiyatini amalga oshirish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Mikromoliyalashni iqtisodiyot va biznesning ochiqligini oshirish usuli deb ham hisoblanadi.

19. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat unumdorligini oshirishga qodir bo'lgan mashina va uskunalarning kiritilishi, ishlab chiqarishni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish miqyoslarini kengaytirish zarur. Shuningdek, yangi texnika bilan bir vaqtda milliy iqtisodiyot uchun mutlaqo yangi texnologiyalarni – elektron nur, plazma, impuls kabi texnologiyalarni keng qo'llashni, dehqonchilik va chorvachilikda esa industrial, intensiv texnologiyalarga o'tishni ta'minlash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

1.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Iqtisodiyot huquq dunyosi”, 2010.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahrir). –T.: Adolat, 1998.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 20-son, 215-modda.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli “Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi Qarori. “Xalq so'zi” gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2011 yil 4 apreldagi Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so'zi, 2011 yil 13 may.

2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli Qarori.

2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.

2.12.. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 05.01.2006 yil.№PF3706.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomi.. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.01.2010 yil.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 104-sonli Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil 15son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1.1. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.

1.2. I.A.Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.

1.3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.– T.: "Ma'naviyat", 2008.

1.4. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009.

1.5. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.

1.6. I.A.Karimov. Demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.

1.7. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

2.2. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar, №19 (4934).

2.3. Karimov I.A. Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. – “Xalq so'zi” gazetasi.

2.4. Karimov I.A. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.

2.5. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

III. Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

1.1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” - 2009.

1.2. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: “O'qituvchi” NMIU, 2008.

1.3. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakiyeva I.A. “Mehnat iqtisodiyoti” – T.: TDIU, 2011.

1.4. Hayitov A.B., Adilova G.G., Arabov N.U. “Xorijda mehnatga haq to'lashni tashkil etish” - T.: TDIU, 2011.

1.5. Рынок труда: Учебное пособие. /Под общ.ред. Абдурахмонова К.Х., Одегова Ю.Г. – Т.: ТФРЕА, 2009.

1.6. Bakiyeva I.A. “Inson resurslari iqtisodiyoti” fani (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2011.

1.7. Abduramanov X.X. “Mehnat resurslari safarbarligi. O’quv qo’llanma. – T.: TDIU, 2011.

1.8. Xolmuminov Sh.R., Bakiyeva I.A. Mehnat ko’rsatkichlari tahlili (o’quv qo’llanma) – T.: TDIU, 2009.

2. Rossiyada chop etilgan

2.1. Экономика и социология труда. Учебник. / Под. ред. А.Я.Кибанова. – М.: ИНФРА-М, 2010.

2.2. Волгин Н.А. Экономика труда: (социально-трудовые отношения) / Под ред. Н.Л. Волгина, Ю.Д. Одегова. -М.: «ЭКЗАМЕН», 2009

2.3. Кязимов К.Г. Рынок труда и занятость населения: Учеб. пособ.– М.: «Перспектива», 2005.

2.4. Мумладзе Р.Г. Экономика и социология труда: учебник / под общ ред Р.Г. Мумладзе. – 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2007.

2.5. Рофе А.И., Збышко Б.Г., Ишин В.В. Рынок труда, занятость населения, экономика ресурсов для труда: Учеб. пос. /Под ред. А. И. Рофе. -М: Изд-во «МИК», 1997.

2.6. Одегов Ю.Г. и др. Экономика труда: Учебник. В 2 т. Т. 1. – М.: «Алфа-Пресс», 2007.

2.7. Одегов Ю.Г. и др. Экономика труда: Учебник. В 2 т. Т. 2. – М.: «Алфа-Пресс», 2007.

2.8. Рынок труда: учебник / под ред. проф. Б.С. Буланова. Рынок труда: учебник / под ред. Б.С. Буланова и Н.А. Волгина. — 3-е изд., перераб. и доп. — М: «Экзамен», 2007

2.9. Экономика и социология труда: учебник./Под. Ред. Проф. А.Я.Кибанова. –М.: ИНФРА-М, 2007

2.10. Адамчук В.В. Экономика и социология труда/ В.В. Адамчук, О.В.Ромашов, М.Е.Сорокина- М: ЮНИТИ, 2001.

2.11. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избр произведения. – М.: Экономика, 1993.

2.12. Самуэлсон П. Экономика .– М.: НПО Алгон, 1992.

2.13. Эренберг. Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика: Пер. с англ. - М: Изд-во МГУ, 1996.

2.14. Макконнелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Т. 2. – М.: Прогресс, 1992.

2.15. Маршалл А. Принципы политической экономии. – М.: Прогресс, 1983.

2.16. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. -М.: Наука, 1993.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Darslik va o'quv qo'llanmalar

1.1. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

1.2. Abdurahmonov Q.X., V.Imomov. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. – T.: “Akademiya”, 2008.

1.3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'lumotlar tarixi. – T.: “O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2005

1.4. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z. Malakali agrar mehnat bozorining shakllanishi. – T.: “Fan”, 2003.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012.

2. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari

2.1. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislari to'plami. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010.

3.Doktorlik,nomzodlik va magistrlik dissertasiyalar

1. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. 08.00.10. – “Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo'yicha Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyasi. – T.: 2008.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

- 5.1. “Xalq so'zi” gazetasi 2008-2011 yil sonlari.
- 5.2. “Bozor, pul, kredit” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.3. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.4. “Iqtisodiyot va ta'lim” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot va tahliliy sharh. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.6. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hisobotlari.
- 5.8. Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi hisobotlari.
- 5.9. Samarqand viloyat Statistika Bosh boshqarmasi hisobotlari.

VI. Internet saytlari

- http: // www.prezident.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti.
- http: // www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi veb-sayti.